

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

QURILISHNI BOSHQARISH FAKULTETI

MENEJMENT KAFEDRASI

SATTAROVA G.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: “Kapital qurilishda tanlov savdolari va narxni shakllantirishni
takomillashtirish”**

**(«Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish
hududiy konsalting markazi» misolida)**

TOSHKENT – 2012

Mundarija:

Kirish -----	2
I. BOB: Kapital qurilishda tanlov savdolari va narxni shakllantirishning nazariy - uslubiy asoslari	
O`zbekistonda kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan chora – tadbirlar-----	5
Kapital qurilishda tanlov savdolari va narxni shakllantirishni tashkil etishning me'yoriy - huquqiy asoslari va qoidalari -----	14
Kapital qurilishda tanlov savdolari va narxni shakllantirishning usul va uslublari -----	37
II. BOB: Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining xo`jalik faoliyati tahlili	
Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining asosiy texnik iqtisodiy ko`rsatkichlari-----	50
Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining moliyaviy natijalari tahlili -----	58
Qurilish korxonalari faoliyatida obyekt qiymatini aniqlashning joriy narxlar tahlili -----	64
III. BOB Kapital qurilishda tanlov savdolari va narxni shakllantirishni takomillashtirish	
Kapital qurilishda narxlarni shakllantirish mexanizmini takomillashtirish----	65
Kapital qurilishda elementli resurs normalarini takomillashtirish -----	68
Xulosa -----	69
Foydalanilgan adabiyotlar -----	72

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish sohasida qator ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Bu eng avvalo, ko'p ukladli iqtisodiyot va mulkdorlar sinfining shakllanishiga, makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanganligida va shu barqaror iqtisodiy o'sish uchun mustaqil zamin tayyorlanganligida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini shakllantirishdan asosiy maqsad – ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni, samarali boshqarish tizimlarini shakllantirish asosida ishlab chiqarishni iste'molchi xohish – irodasiga tomon burush, fuqarolarning iqtisodiy erkinligini ta'minlagan holda mehnatsevarlikni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, yuqori unumdorlikni rag'batlantirish uchun obyektiv sharoit yaratishdan iboratdir. Mamlakatimiz rahbari Islom Abdug'aniyevich Karimov kichik biznes subyektlari faoliyatiga alohida to'xtalib o'tib, shunday degan edi: "Iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab – quvvatlashga alohida e'tabor qaratildi".

Hamma sohada kabi qurilish sohasida ham iqtisodiy islohotlar bozor munosabatlarini shakllantiruvchi sharoitlarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirish asosida amalgam oshirilmoqda. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ulkan o'zgarishlar va yutuqlarga erishildi. Ushbu yillar davomida qurilish tarmog'ida boshqa tarmoqlar kabi o'sish sezilarli darajada yuqori. O'zbekistonda qurilish ishlarining muvaffaqiyatli rivojlanishi tarmoqdagi tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiy islohotlar bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy arxitektura va shaharsozlik talablaridan kelib chiqib, namunali loyihalar ishlab chiqish va qo'llash, qurilish ko'lamini oshirish hamda uni industrialashtirish, joylarda mahalliy xomashyo va mehnat resurslaridan keng foydalangan holda yangi va zamonaviy qurilish materiallarini ishlab chiqarishni tashkil etish asosida uy –joy, ijtimoiy va maishiy

hamda madaniy obyektlar qurilishidan. Umuman aholi punktlarining qiyofasini o`zgartirishdan va pirovardida aholi turmushining sifat darajasini yanada oshirishdan iboratdir. Bu esa tarmoqni yanada rivojlantirishning yangi yo`nalishlarini ishlab chiqishda iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o`zgarishlarning holatini tadqiq etishni talab etadi.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqot ishidan maqsad – Kapital qurilishda narx shakllanishi, qurilish shartnomasi, qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlashning umumiy qoidalari, smeta tuzishda elementli resurs normalari va ularni tadbqiq etishni o`rnatish. Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazi misolida qurilish tashkiloti xo`jalik faoliyatini tahlil ishlarini amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot ishining bosh maqsadidan kelib chiqib, quyidagilar diplom ishining vazifalari sifatida belgilandi:

Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash asoslarini ko`rib chiqish.

Kapital qurilishda narx shakllantirish uchun smeta normativ hujjatlar tizimini o`rganish.

Qurilish ishlariga smeta tuzishda elementli resurs normalari va ularni tadbqiq etishni o`rganish.

Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining asosiy texnik – iqtisodiy ko`rsatgichlarini tahlil qilish.

Ob`yekt qiymatini aniqlashda joriy narxlarni tahlil qilish.

Ob`yekt qurilishiga shartnomaviy joriy narxlardagi qiymatini tahlil qilish.

Tadqiqot predmeti. O`zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlashning qoidalari, qurilishda narx shakllantirish uchun smeta normativ hujjatlar tizimi o`rganish , qurilish ishlariga elementli resurs smeta normalarini ishlab chiqish va tadbqiq etish bo`yicha umumiy qoidalarni o`rganishga qaratilgan.

Tadqiqot ob`yekti. Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining qurilish – montaj faoliyati va tanlov savdolari hujjatlarini tahlil qilish.

Tadqiqotning metodologik va nazariy asosi bo`lib, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va farmonlari, O`zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasi qaror va me`yoriy hujjatlari, mamlakatimiz hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, shuningdek, “Davlat Arxetektura va qurilish qo`mitasi ” qaror va meyoriy hujjatlari, qurilish iqtisodiyotiga oid chop etilgan iqtisodiy adabiyotlar tashkil etadi.

Tadqiqot uslubi. Bitiruv malakaviy ishini predmetini o`rganishda muayyan usullardan ko`proq foydalaniladi. Bu usullarga: iqtisodiy – matematik, iqtisodiy tahlil va sintez , iqtisodiy taqqoslash, statistic kabilar kiradi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Kirish, uch bob , xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iiborat.

I. BOB. Kapital qurilishda tanlov savdolari va narxni shakllantirishning nazariy - uslubiy asoslari

1.1. O'zbekistonda kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan chora – tadbirlar

Respublikamizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari kabi kapital qurilish tarmog'ida ham amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o'zgartirish va modernizatsiyalash jarayonlari amalga oshirilayotgan hozirgi kunda sohada o'z yechimini kutayotgan ustuvor vazifalardan biri kapital qurilish sohasida pudrat ishlarini va tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshiruvchi munosib nomzodlarni tanlash va ular bilan bozor qonuniyatlariga asoslangan, iqtisodiy boshqaruv motivatsiyasiga ega bo'lgan mexanizmni shakllantirish vazifasi turadi.

Aynan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida" 2003 yil 6 maydagi PF-3240-son Farmoni bajarilishiga qaratilgan hamda kapital qurilish sohasida tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridining yagona tizimini yaratish, tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi 302-sonli "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Mazkur Qarorga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risidagi Nizom" tasdiqlandi.

Qarorda qurilish sohada erkin bozor munosabatlari va qonuniyatlarining amal qilishini ta'minlash maqsadida quyidagilar belgilab qo'yildi:

markazlashtirilgan manbalar, davlat boshqaruv organlari va davlat korxonalari mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan kapital qurilish bilan bog'liq tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridi faqat tanlov savdolari natijalari bo'yicha amalga oshiriladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

kapital qurilish bilan bog'liq tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilishda tanlov savdolari majburiy o'tkazilishi uchun buyurtmachilar, tanlov savdolarini

o'tkazishning belgilangan tartibiga rioya qilinishi uchun esa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tanlov savdolari tashkilotchilari javob beradilar;

sifatli bajarilgan ishlar va xizmatlarni o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirish yuzasidan shartnoma shartlari bajarilmaganligi uchun shartnoma shartlariga muvofiq buyurtmachi moddiy javob beradi, shuningdek ko'rsatib o'tilgan sabablar natijasida soliq organlari tomonidan hisoblangan, ularga to'langan jarimalar va penyani pudratchiga to'liq qoplaydi;

tanlov savdolari natijalari bo'yicha tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan shartlarning o'zgarishi, buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasida kelishuv mavjudligidan qat'i nazar, faqat ular belgilangan tartibda tanlov komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilgandan va tasdiqlangandan keyin qabul qilingan deb hisoblanadi;

qurilishning amaldagi qiymatini tanlov savdolari natijalari bo'yicha shartnomada belgilangan shartnomaviy narxga nisbatan kamaytirish natijasida tejalgan mablag'lar pudrat tashkilotining tasarrufida qoladi.

Shuningdek, Qarorda xorijiy pudrat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan va erkin muomaladagi valyutada haq to'lanadigan xorijiy kreditlar va grantlar hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda, agar xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan tuzilgan kredit shartnomalarida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, tanlov hujjatlariga ishlar (xizmatlar) qiymatining kamida 50 foizi miqdorida ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasining xo'jalik yurituvchi sub'yektlari - rezidentlari ishtirok etishi shartlari kiritilishi belgilab qo'yilgan.

Tanlov savdolarini taskil etish va o'tkazishda tanlov komissiyasining ish tartibi.

Tanlov komissiyasining ish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyul 302-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risidagi" nizomning talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, tanlov komissiyasining tanlov savdolarini

taskil etish va o'tkazish jarayonida olib boriladigan ish tartibi, funksiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Mazkur ish tartibi (reglament) tavsiya xususiyatiga ega, tanlov savdolarining predmetidan qat'iy nazar tanlov komissiyasi tomonidan o'zgartirishlar kiritilishi va belgilangan tartibda buyurtmachi tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

Tanlov komissiyasining, tanlov savdolarining bevosita ishtirokchisi bo'lgan holda (tanlov savdolarini o'tkazish jarayonida doimiy yoki vaqtinchalik organ), (investor) buyurtmachining buyrug'i yoki boshqa farmoyish beruvchi hujjati bilan tuziladi va tanlov savdolarining tartibotiga doir masalalarni ko'rib chiqishga, muhokama etib tasdiqlashga huquqlidir.

Tanlov komissiyasining dastlabki yig'ilishi tanlov hujjatining ishlab chiqilishi jarayonida (tanlov hujjati ekspertiza ko'rigidan o'tmasdan avval) o'tkazilib:

Tanlov va talabgorning malakasini oldindan aniqlash hujjatlariga, ofertani joylashga va markirovka qilish shart va talablarini;

Takliflarning texnik va moliyaviy baholash mezonlarini;

Tanlov savdolarida ishtirok etish buyurtmasini taminlash shaklini;

tanlov komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Mazkur yig'ilishlarda ofertalarni ochilish sanasi, kuni va vaqti tayinlanadi, tanlov savdosini o'tkazish haqidagi e'lon ommaviy axborot vositalarida chop etilgan kundan, 30 kun oldin bo'lmasligi kerak.

Loyihani amalga oshirishda qiymatlaridan, muddatlaridan va ishlarning xususiyatidan qat'iy nazar, har bir obyekt bo'yicha texnik va moliyaviy baholash me'zonlari alohida ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Tanlov komissiyati qaysidir bitta tanlov ishtirokchisiga ustunlik beradigan tanlov takliflariga baholash mezonlarini belgilashga huquqi yo'q.

Tanlov tashkilotchisi tomonidan tanlov komissiyasining dastlabki, birinchi yig'ilishida qabul qilingan qarorlarga muvofiq kiritilgan o'zgartirishlar asosida tanlov hujjatlari qayta ishlab chiqiladi va O'zbekiston Respublikasi "Davarxitektqurilish" qo'mitasiga ekspertiza ko'rigidan o'tkazish uchun tavsiya etiladi.

Tanlov komissiyasi navbatdagi yig`lishlarda, qoidaga ko`ra, ofertalar solingan konvertlarni ochadi, malakaviy baho beradi, yoki boshqa qarorlar qabul qiladi.

Yig`ilishlarda komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan va ishtirok etgan barcha komissiya a`zolari imzo chekadigan bayonnomalar yuritiladi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga buyurtmachining qarori bilan komissiya kotibi kiritilishi mumkin, kotibning vazifalariga tanlov komissiyasining ishchi hujjatlarini rasmiylashtirish kiradi, bunda komissiya kotibi mustaqil ovoz berish huquqiga ega emas.

Qoidaga ko`ra, tanlov komissiyasining kotibi etib tanlov savdosi tashkilotchisining vakili tayinlanadi.

Tanlov komissiyasining barcha yig`ilishlarida komissiya a`zosi bo`lmagan “Davarxitektqurilish” qo`mitasining vakolatli vakili ishtirok etadi.

3. Tashqi konvertlarni (1 – paketlar) ochish, tarkibini ko`rib chiqish va baholash.

1 – paketlarning ochilishi tanlov komissiyasining yig`ilishlarida qatnashish istagini bildirgan oferentlar yoki ularning vakolatli vakillari ishtirokida quyidagi tartibda amalgam oshiriladi:

Barcha ofertalarning konvertlari ko`zdan kechiriladi, ularning tashqi ko`rinishi komissiya tomonidan tasdiqlangan tanlov hujjatlarining talablariga mos kelishi kerak;

1 – paketlar ochilishi, ularning tarkibi va ularning to`g`ri rasmiylashtirilganligi tekshirilganda ko`rinishi komissiya tomonidan tasdiqlangan tanlov hujjatlarining shartlariga mos kelishi kerak;

Ochilgan konvertlar tarkibida bironta hujjatlarning yo`qligi, yoki noto`g`ri rasmiylashtirilganligi uchun 2 – paket hujjatlari oferentga ochilmasdan qaytarib beriladi.

1 – paketlar tarkibini o`rganish oferentlar yoki ularning vakolatli vakillarining ishtirokisiz, tasdiqlangan mezonlar asosida o`rganib chiqiladi, bunda tanlov komissiyasining raisiga hujjatlarning asli, komissiya a`zolariga esa nusxalari topshiriladi.

Zarur bo'lganda tanlov komissiyasi mustaqil ekspertlarni jalb etadi, yoki tanlov komissiyasi tarkibidan baholash guruhini tuzadi.

Baholash guruhlari yoki mustaqil ekspertlarga 1 – paketlar tarkibini o'rganish bo'yicha aniq muddatlar belgilanib, taklif kiritish haqida topshiriqlar beriladi.

Baholash guruhlarining faoliyatining ish tartibi O'zbekiston Respublikasi “Davarxitektqurilish” qo'mitasining 2005 yil 27 iyun 31 – sonli buyrug'I bilan tasdiqlangan “Tanlov savdolarini o'tkazishda malaka va narx ko'rsatkichlarini ko'rib chiqish uchun baholovchi guruhlarini tuzish, ularning funksiyalari va vazifalari haqida”gi metodik qo'llanmalarda belgilab berilgan.

Baholovchi guruh va mustaqil ekspertlarning 1 – paketlarning tarkibi bo'yicha xulosalari muhokama qilingandan so'ng, tanlov takliflari barcha komissiya a'zolari tomonidan texnik baholash jadvallari orqali baholanadi.

Agar oferentning ofertasi keyingi bosqichlarga o'tishi uchun texnik baholash natijalari bo'yicha komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan yetarli ballar miqdorini to'plasa, tanlov komissiyasining qarori ijobiy hisoblanadi.

Tanlov komissiyasining ovozga qo'yish natijalari haqidagi ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi va oshkor etishga yo'l qo'yilmaydi.

Har bir ofertaning keyingi bosqichlarga o'tishi ko'pchilik ovoz bilan hal qilinadi, agar ovozlar teng bo'lganda komissiya raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Oferentlarning texnik malakasini baholash natijalari bo'yicha tanlov komissiyasining qarori rais tomonidan oferentlarning yoki ularning vakolatli vakillari ishtirokida quyidagi tartibda e'lon qilinadi:

Ichki konvertlarni o'rganish uchun ruxsat etilgan ofertalarning ro'yxati;

Diskvalifikatsiya yoki inkor etilgan ofertalarning ro'yxati;

Inkor etilgan yoki diskvalifikatsiya qilingan ofertalarning 2 – paketlari oferentlarga ochilmasdan qaytarib beriladi.

Agar ofertaning tashqi ko'rinishiga zarar yetgan bo'lsa va bundan oferentning xabari bo'lmasa, unda oferent tanlov komissiyasining yig'ilishida ofertalarning ochilishi vaqtida bu haqda ta'kidlab o'tishga haqlidir. Bunday hollarda tanlov

komissiyasi tanlov savdolarini to`xtatishi va tekshirib ko`rishi uchun oferentning ofertasini qaytarib berishi kerak.

Ichki konvertlarni (2 – paketlar) ochish, tarkibini ko`rib chiqish, baholash va tanlov savdalari g`olibini aniqlash.

2 – paketlarning ochilishi tanlov komissiyasining yig`ilishlarida qatnashish isatagini bildirgan oferentlar yoki ularning vakolatli vakillari ishtirokida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Barcha ofertalarning 2 – paketlari ko`zdan kechiriladi, ularning tashqi ko`rinishi komissiya tomonidan tasdiqlangan tanlov hujjatlarining talablariga mos kelishi kerak;

Konvertlar ochilishi, ularning tarkibi va ularning to`g`ri rasmiylashtirilganligi tekshirilganda ko`rinishi komissiya tomonidan tasdiqlangan tanlov hujjatlarining shartlariga mos kelishi kerak;

Tanlov talablarini kafolat bilan ta`minlash hujjatlari o`rganiladi;

Loyihalarni amalga oshirish muddatlari va oferentlari narxlari e`lon qilinadi;

Buyurtmachi tomonidan belgilangan tanlov savdosi predmetining boshlang`ich narxi va loyihaning amalgam oshirish muddatlari e`lon qilinadi;

Tanlov komissiyasi (baholash guruhi) tomonidan tavsiya etilgan ofertalar tarkibidagi bajariladigan ish hajmlari vedomostlari tanlov hujjatlarining texnik qismida keltirilgan ish hajmlari va ro`yxatiga mos kelishi o`rganib chiqiladi;

Arifmetik xatolar tekshiriladi;

Har bir ofertani ochish, tarkibining to`liqligi va tanlov buyurtmasi ta`minotining kafolatini tekshirish ketma – ketlikda amalgam oshiriladi. Tanlov savdolarining predmeti boshlang`ich narxi va loyihani bajarish muddati talabgorning narxi e`lon qilingandan so`ng oshkor etiladi.

Ularining vakolatli vakillarining ishtirokisiz amalga oshiriladi. Bunda tanlov komissiyasi raisiga hujjatlarning asli, komissiya a`zolariga nusxalari topshiriladi.

Baholovchi guruh va mustaqil exspertlarning 2 – paketlarning tarkibi bo`yicha xulosalari muhokama qilingandan so`ng, tanlov takliflari barcha komissiya a`zolari tomonidan texnik baholash jadvallari orqali baholadi.

Eng yuqori ball olgan taklif g`olib deb hisoblanadi.

Tanlov komissiyasining ovozga qo`yish natijalari haqidagi ma`lumotlar maxfiy hisoblanadi va oshkor etishga yo`l qo`yilmaydi.

Tanlov savdolarining g`oliblari komissiya tomonidan ishtirok etish istagini bildirgan tanlov savdolari qatnashchilarning ishtirokida e`lon qilinadi. Ishtirok etmagan qatnashchilar tanlov komissiyasi tomonidan yozma ravishda xabardor etiladilar.

Komissiya tomonidan kelib tushgan takliflarga nisbatan qabul qilingan qarori yakuniy hisoblanadi, va mazkur masalalar bo`yicha muvaffaqiyat qozona olmagan talabgorlar bilan hech qanday yozishmalar olib borilmaydi.

Tanlov komissiyasi talabgorlardan (oferent) malaka ma`lumotlariga muvofiqligini tasdiqlovchi dalillarni hujjali shaklda talab qilishga haqlidir.

Tanlov komissiyasi o`zining qarori bilan quyidagi holatlar bo`yicha:

Taqdim etilgan hujjatlar tanlov hujjatlarining talablariga mos kelmaganda, noto`g`ri ma`lumot va O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid bo`lgan hollar aniqlanganda;

Agar tanlov savdolari predmeti hisoblanadigan ishlar yoki xizmatlarni bajarish bilan bog`liq bo`lgan faoliyat O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalanishi kerak bo`lsada, oferentning litsenziyasi bo`lmasa;

Agar talabgorlar qayta tashkil etish (bo`linish, birlashish) tugatish yoki bankrotlik bosqichida bo`lgan, mulki xatlab qo`yilgan hollarda;

Muassislik hujjatlari, moliyaviy qatnashish, holding shaklida va boshqa shakllarda ifodalangan bir – biri bilan bevosita tashkiliy – huquqiy yoki moliyaviy bog`liq bo`lgan hollar mavjud bo`lganda;

Oferentlarni savdodan chetlashtishga va ofertalarni keyinchalik bosqichlarda o`rganmasdan qaytarib berishga haqlidir:

Tanlov komissiyasi tanlov hujjatlarining e`lon qilingan shartlariga nomuvofiqligini yoki ofertani rasmiylashtirishdagi noaniqliklarni ular boshqa qatnashchilarning reytingiga ta`sir ko`rsatmaydigan va ularga yo`l qo`ygan tanlov savdolari qatnashchisiga ustunlik bermaydigan hollarda etiborga olmasligi mumkin.

Komissiya tanlov savdolarini o`tkazish jarayonida tanlov ishtirokchilari tomonidan kelib chiqqan fikr – mulohaza va talablarini 15 kunlik muddatdan oshib ketmagan holda ko`rib chiqib qaror chiqarishi va javob yo`llash huquqiga egadir. Tanlov savdolari tartibotlaridan kelib chiqqan kelishmovchiliklar va nizolar O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchlik hujjatlarida belgilangan tartibda ko`rib chiqiladi.

Tanlov komissiyasi oferent tomonidan tavsiya etgan hujjatining tarkibi bo`yicha izohlar bilan tushuntirishlar kiritishga yo`l qo`yishga haqlidir. Bunda ofertaning mazmuni, shu jumladan narxi yoki bajarish muddatini o`zgartiruvchi tushuntirishlar berilishiga yo`l qo`yilmaydi.

Tanlov komissiyasi quyidagi hollarda:

Tanlov komissiyasi tomonidan belgilangan muddat tugashiga 2 tadan kam oferta kelib tushsa (agar yopiq tanlov savdosi o`tkazilayotgan bo`lsa);

Tanlov komissiyasi tomonidan belgilangan muddat tugashiga 3 tadan kam oferta kelib tushsa (bunda yopiq tanlov savdoslari mustasno);

Ofertalarda tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani ta`minlash kafolati mavjud bo`lmasa;

Ofertalar tahlov hujjatlari shartlariga muvofiq bo`lmasa;

Oferent tomonidan taklif etilgan narxlar tanlov savdolari predmeti boshlang`ich qiymatidan ancha ortiq bo`lsa (ortiqlik foizi moliyaviy baholash mezonlarida ko`rsatiladi);

Tanlov savdolari e`lon qilingan narxlar bilan o`tkazilayotganda oferentlar tomonidan taklif etgan narxlari buyurtmachi tomonidan belgilangan boshlang`ich narxga nisbatan yuqori bo`lganda;

"Davarxitektqurilish" qo`mitasi bilan kelishuv bo`yicha tanlov komissiyasi tomonidan asoslangan boshqa holatlar patdo bo`lsa Tanlov savdolarining o`tkazilmagan deb elon qilinishi tanlov komissiyasining mulkiy yoki boshqacha tushdagi javobgarligiga olib kelmaydi.

Tanlov komissiyasi tanlov tartibotlari bo`yicha har qanday qarorga kelishi mumkin, qachonki ushbu qarorlar tegishli qarorlar negizida bo`lsa.

Tanlov komissiyasi:

- Tanlov savdolari tartibotlarining bosqichlarida kvorumsiz (tanlov komissiyasi aʼzolarining soni yetarli boʻlmaganda), kamchilik ovoz bilan va/yoki tanlov hujjatlarining baholash mezonlarini hisobga olinmasdan turib tanlov komissiyasi tomonidan qaror qabul qilinishiga;

- talabgor (oferent)dan uning malaka maʼlumotlariga muvofiqligini tasdiqlovchi dalillarni hujjatli shaklda taqdim etishning asossiz talab qilinishi;

- talabgorlarning oʻz intellektual mulki yoki tijorat sirini muhofaza qilishga boʻlgan huquqi buzilganligi;

- talabgorlar (oferentlar)ning malaka maʼlumotlariga nisbatan tanlov hujjatlarida nazarda tutilmagan mezonlar va talablar belgilanganligi;

- muassislik hujjatlari, moliyaviy qatnashish, holding shaklida va boshqa shakllarda ifodalangan bir – biri bilan bevosita tashkiliy – huquqiy yoki moliyaviy bogʻliq, qayta tashkil etish (boʻlinish, birlashish) tugatish yoki bankrotlik bosqichida boʻlgan, mulki xatlab qoʻyilgan talabgorlarning tashkilotlarning tanlov savdolarida qatnashishlariga;

- talabgorlar (oferentlar)ning tanlov savdolari tartibotida qatnashishdan asossiz ravishda chetlatilganligi;

- tanlov savdolarining boshqa qatnashchilari reytingiga taʼsir qilmaydigan, ularga yoʻl qoʻygan tanlov savdolari qatnashchisiga ustunlik bermaydigan hollarda tanlov hujjatlarining eʼlon qilingan shartlarga yoki ofertani rasmiylashtirishdagi noaniqliklarga nomuvofiqligi eʼtiborga olinganligi;

- oferta mazmunini oʻzgartiradigan tushuntirishlar va tuzatishlar yoʻl qoʻyilganligi, shu jumladan narxlar yoki bajarish muddati oʻzgartirilganligi;

- ofertani tanlov komissiyasi majlisida koʻrib chiqish davomida oferentning tushuntirish berishiga asossiz ravishda yoʻl qoʻyilmaganligi;

- axborotning oshkor qilinganligi, savdolar qatnashchilarining oʻzaro yoki jalb etilgan mutaxassislar bilan kelishuviga yoʻl qoʻyilganligi, shuningdek qonunga zid boshqa xatti – harakatlar qilinganligi;

- tanlov savdolari g`olibining tanlov komissiyasining ochiq majlisida aniqlanganligi, tanlov savdolari g`olibini e`lon qilish tartiboti buzilganligi, ishtirok etmagan qatnashchilarning o`z vaqtida xabardor qilinmaganligi;

- tanlov savdolari tartibotining boshqacha buzilishlari uchun javob beradi.

Mazkur ish tartibi tanlov hujjatining ajralmas qismidir va tanlov komissiyasi tomonidan ko`rib chiqilgandan va buyurtmachining tasdiqlagan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

1.2. Kapital qurilishda tanlov savdolari va narxni shakllantirishni tashkil etishning me`yoriy - huquqiy asoslari va qoidalari

Kapital qurilishda tanlov savdolari va narxni shakllantirish sifatini va qurilish me`yorlari va qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, sifatni oshirish, xavfsizlikni ta`minlash uchun:

Investitsiya jarayonining barcha bosqichlarida – biznes - reja va texnik – iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishdan tayyor qurilish obyektni qabul qilishgacha bo`lgan davrda mustaqil ekspertiza qilish mexanizmini joriy etish;

Qurilish ishlarini bajarish yuzasidan pudrat shartnomasida tayyor obyektlarni qabul qilish davrida qabul komissiyasi tomonidan obyektiv sabablarga ko`ra topilmaydigan nosozliklar va boshqa buzilishlarni bartaraf etish bo`yicha pudratchining muddatli kafolat majburiyatlarini joriy etish;

Me`yoriy – texnik hujjatlarni, qurilish me`yorlari va qoidalarini, standartlarini takomillashtirish nazarda tutilmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 6 maydagi «Kapital qurilishda iqtisodiy isloxlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo`nalishlari to`g`risida»gi PF-3240-sonli Farmonida belgilangan vazifalarni bajarish borasida 2009 yilning yakuni bo`yicha bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Respublika Prezidentining 2007 yil 14 martdagi “Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag`batlantirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmonida belgilangan vazifalarni amalda bajarish maqsadida viloyatdagi qurilish mahsulotlari ishlab-chiqaruvchi korxonalarni muntazam ravishda modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan

qayta jihozlash, ularni yuqori sifatli, raqobatbardosh eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab-chiqarishni ko'paytirish imkonini beradigan ilg'or zamonaviy uskunalar bilan ta'minlashga qaratilgan samarali rag'batlantirish tizimini yaratish borasida ish tashkil etilmoqda.

Viloyatda barcha pudrat ishlari Prezident farmonlari hamda Hukumat qarorlari asosida tashkil etilmoqda. Pudrat ishlari yuzasidan o'tkazilgan tender savdolari Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 3 iyuldagi "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 302-sonli qarori talablari asosida tashkil qilingan.

"O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida Nizom" 108 ta banddan tashkil topib ular 12 ta bobga ajratilgan.

Nizomda umumiy qoidalar keltirilgan bo'lib, mazkur qoidalariga muvofiq:

1. Nizom kapital qurilish, shuningdek ilgari to'xtatib qo'yilgan ob'yektlar qurilishini davom ettirish bilan bog'liq ishlar va xizmatlarning butun kompleksini (keyingi o'rinlarda matnda ishlar, xizmatlar deb yuritiladi) bajarish, tovarlar xarid qilish, asbob-uskunalar sotib olish yuzasidan tanlov savdolari (tenderlar)ni tashkil etish va o'tkazish tartibi va shartlarini belgilashi ko'rsatilgan.

2. Nizom talablari O'zbekiston Respublikasi hududida markazlashtirilgan manbalar (davlatning kapital qo'yilmalari), davlat boshqaruv organlari va davlat korxonalari mablag'lari hisobiga tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilishda majburiy hisoblanadi.

3. 2-bandda sanab o'tilmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladigan qurilish ob'yektlari uchun mazkur Nizom talablari tavsiya xususiyatiga ega bo'ladi.

4. Mazkur Nizom, agar xorijiy kreditlar va grantlar berish shartlariga ko'ra o'zgacha tartib belgilangan bo'lsa, tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridiga joriy etilmaydi.

5. Tanlov savdolari o'tkazish to'g'risidagi qaror buyurtmachi tomonidan faqat tanlov savdolari predmeti tegishli hujjatlar (kredit shartnomasi, bank ma'lumotnomasi, qurilishlarning aniq ro'yxati, davlat boshqaruv organi qarori va

boshqalar) bilan tasdiqlangan moliyaviy resurslar bilan ta'minlangan taqdirda qabul qilinadi.

6. "O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida Nizom" da quyidagi tushunchalardan foydalanilgan:

boshlang'ich narx - buyurtmachi tomonidan yoki uning buyurtmasi bo'yicha jalb etilgan tashkilot tomonidan aniqlanadigan tanlov savdolari predmetining hisoblab chiqilgan qiymati;

baholovchi guruh - ofertani baholash uchun tanlov komissiyasi tomonidan tashkil etiladigan vaqtinchalik organ;

baholovchi komissiya - erkin savdoda xaridni amalga oshirishda buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan doimiy yoki vaqtinchalik organ;

baholash mezonlari - talabgorlarni tanlash hamda ofertani baholash va savdolar g'olibini aniqlash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar;

buyurtmachi - investor yoki tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda investor tomonidan belgilangan yuridik shaxs;

talabgorning malakasini oldindan aniqlash - tanlov savdolarida qatnashishga qo'yish uchun talabgorlarni tanlash;

investor - tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridiga o'z mablag'larini yoki qarz olingan mablag'larni (byudjetdan moliyalashtirishda - nazarda tutilgan mablag'larni) qo'yuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

kapital qurilish - yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruktsiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, ob'yektlar va asosiy vositalarni mukammal ta'mirlash, shu jumladan loyiha-qidiruv ishlarini bajarish;

tanlov savdolarida ishtirok etishga buyurtmanomalarni ta'minlash - oferent tomonidan buyurtmachining talabiga ko'ra ular bo'yicha dastlabki majburiyatni bank beradigan bank kafolati, topshiriq, zaxira akkreditivlar, cheklar shaklidagi tanlov savdolari shartlarida nazarda tutilgan istalgan majburiyatning, yoxud ta'minlashning boshqa turlarida ta'minlanishi;

talabgor - ofertasi savdo tashkilotchisi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar taklif etilgan shartlarda tanlov savdolarida qatnashish niyatini bildirgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

tanlov buyurtmanomasi aktsepti - uning yutgan ofertasi e'tirof etilgan holda oferentga yuboriladigan va shartnoma tuzishga taklif hisoblanadigan buyurtmachining yozma bildirishnomasi;

tanlov komissiyasi - mazkur Nizomning 12-bandida sanab o'tilgan funktsiyalarni bajarish uchun buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan doimiy yoki vaqtinchalik organ;

tanlov savdolari - tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan mezonlar va shartlarga muvofiq tovarning maqbul yyetkazib beruvchisini, ishlarni bajaruvchini va xizmatlar ko'rsatuvchini tanlash usuli;

tanlov savdolari predmeti - tovarlar, ishlar va xizmatlar;

tanlov savdolari tashkilotchisi - buyurtmachi yoki tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish uchun buyurtmachi tomonidan jalb etiladigan yuridik shaxs;

tanlov hujjatlari - tanlov savdolarining texnik, moliyaviy, tijorat, tashkiliy tavsiflari va boshqa tavsiflari to'g'risidagi hamda tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish shartlari, tartib-qoidalari to'g'risidagi dastlabki axborot mavjud bo'lgan hujjatlar turkumi;

tovar - xom ashyo, buyum, konstruktsiya, asbob-uskunalarga butlovchi buyumlar, qattiq, suyuq yoki gazsimon holatdagi predmetlar, energiyaning barcha turlari, shuningdek yyetkazib beriladigan tovarga qo'shimcha ravishda ko'rsatiladigan xizmatlar, agar ularning qiymati tovar qiymatining o'zidan ortiq bo'lmasa;

oferent - malaka tanlovidan o'tgan va ofertasi tanlov savdolari tashkilotchisi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan talabgor;

oferta - tanlov hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq taqdim etilgan tanlov savdolari predmetiga nisbatan talabgorning taklifi;

shartnomaviy joriy narx - tanlov savdolari natijalari bo'yicha belgilanadigan tanlov savdolari predmeti narxi;

shartnoma bajarilishini ta'minlash - buyurtmachining talabiga ko'ra tanlov savdolari g'olibi tomonidan ular bo'yicha birlamchi majburiyatni bank o'z zimmasiga oladigan bank kafolati, topshiriq, zaxira akkredetivlar, cheklar shaklidagi, naqd mablag'lardagi depozitlar, yoxud boshqa shakllardagi depozitlar shaklidagi shartnomadagi mavjud majburiyatlar bajarilishining ta'minlanishi.

Tanlov savdolari qatnashchilari:

7. Investor, buyurtmachi, tanlov savdolari tashkilotchisi, tanlov komissiyasi va oferentlar tanlov savdolarining asosiy qatnashchilari hisoblanadi.

8. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

talabgorning malakasini oldindan aniqlash yoki buningsiz tanlov savdolari o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;

rasmiy farmoyish beruvchi hujjat chiqargan holda tanlov savdolarini o'tkazish shakli, turi va sanasini belgilash;

tanlov savdolari tashkilotchisi funksiyasini amalga oshirish (ushbu funktsiyalarni jalb etiladigan tashkilotga berishi mumkin);

mustaqil ravishda yoki ixtisoslashtirilgan tashkilotni jalb etgan holda tanlov savdolari predmetining boshlang'ich qiymatini belgilash.

9. Buyurtmachi quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

tanlov komissiyasi tarkibini va ish tartibini shakllantiradi va tasdiqlaydi, uning ishida qatnashadi;

miqdori tanlov hujjatlarida qayd etiladigan aniq tanlov shartlariga bog'liq bo'ladigan tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomalarni ta'minlash shaklini belgilaydi;

tanlov savdolarining tashkilotchisi bo'ladi (ushbu funktsiyalarni jalb etiladigan ixtisoslashgan tashkilotga berishi mumkin);

tanlov hujjatlari tarkibini belgilaydi;

talabgorning malakasini oldindan aniqlash va tanlov savdolariga qo'yiladigan asosiy talablarni, tanlov savdolari predmetiga qo'yiladigan va tanlov hujjatlari tarkibiga kiritiladigan maxsus va texnik talablarni belgilaydi;

belgilangan tartibda ekspertizaning o'tkazilishi va tanlov hujjatlari tasdiqlanishini ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi bilan kelishgan holda tanlov savdolari natijalari to'g'risidagi hisobotni tasdiqlaydi;

tanlov savdolari g'olibi bilan shartnoma tuzadi;

tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplaydi.

Buyurtmachi investor bilan belgilangan tartibda tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan vakolatlar doirasida boshqa funktsiyalarni ham amalga oshiradi.

10. Quyidagilar tanlov savdolari tashkilotchisining asosiy vazifalari hisoblanadi:

tanlov savdolari o'tkazish tartib-qoidalarini belgilash;

tanlov savdolari predmetiga qo'yiladigan maxsus, texnik va tijorat talablarini hisobga olgan holda talabgorning malakasini oldindan aniqlash va tanlov savdolarini o'tkazish uchun tanlov hujjatlarini ishlab chiqish;

belgilangan shakl bo'yicha tanlov savdolari o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni matbuotda chiqarish va/yoki potentsial talabgorlarga taklifnomalar yuborish;

agar tanlov hujjatlarida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, arizalar va ofertalarni qabul qilish, ularning hisobga olinishi va maxfiyligini ta'minlash;

jalb etiladigan buyurtmachi bilan shartnoma asosida mustaqil ekspertlar yoki maslahatchilarning ishlarini tashkil etish;

talabgorlarga tanlov hujjatlarini taqdim etish;

ofertalarning asl nusxalarini ular ochilgandan keyin buyurtmachiga berish.

11. Tanlov savdolarini tashkil etish uchun ixtisoslashtirilgan tashkilot jalb etilgan taqdirda tanlov savdolari tashkilotchisining huquq va majburiyatlari u bilan buyurtmachi o'rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi.

12. Tanlov komissiyasi quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

o'zining ish tartibini belgilaydi;

miqdori tanlov hujjatlarida qayd etilgan tanlov shartlariga bog'liq bo'lgan tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomalarni ta'minlash shaklini tasdiqlaydi;

ofertani qabul qilishning oxirgi kuni va vaqtini, konvertlarni ochish vaqti va joyini belgilaydi;

talabgorning malakasini oldindan aniqlaydi, agar u tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa;

tegishli ravishda rasmiylashtirgan holda tanlov savdolarini o'tkazish tartib-qoidalarini amalga oshiradi;

ichida ofertalar bo'lgan konvertlarni ochadi, ularning tanlov hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligini tekshiradi (hujjatlarning to'liq taqdim etilishi, rasmiylashtirish va hokazolar) va konvertlarni ochish to'g'risidagi protokolni tasdiqlaydi;

mustaqil ekspertlarni (maslahatchilarni) jalb etish zarurligini belgilaydi yoki tanlov komissiyasi a'zolari orasidan baholash guruhini tuzadi;

tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq ofertalarni o'rganadi, tekshiradi va ko'rib chiqadi, tanlov savdolari g'olibini aniqlaydi yoki boshqa qaror qabul qiladi;

tanlov savdolarini o'tkazish jarayonida paydo bo'ladigan nizolar va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqadi va tartibga soladi hamda ular bo'yicha tegishli xulosalar chiqaradi.

13. Tanlov komissiyasi a'zolari soni toq bo'lishi kerak.

Qoidaga ko'ra, tanlov komissiyasi tarkibiga investor, buyurtmachi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, joylardagi davlat hokimiyati organlari, xizmat ko'rsatuvchi bank vakillari kiritiladi. (O'zR VM 08.09.2005 y. 206-son Qarori taxriridagi xat boshi), (Oldingi taxririga qarang)

Tanlov savdolari predmetiga bog'liq ravishda tanlov komissiyasi tarkibiga loyiha, ekspert tashkilotlari va boshqa tashkilotlarning vakillari kiritilishi mumkin.

14. Tanlov komissiyasi tarkibida investor va buyurtmachining vakillari soni komissiya a'zolari umumiy sonining to'rtidan bir qismidan ortiq bo'lmasligi kerak.

15. Agar majlisda tanlov komissiyasi a'zolarining kamida to'rt dan uch qismi qatnashsa tanlov komissiyasi huquqiy vakolatli hisoblanadi.

16. Tanlov savdolarini o'tkazish tartib-qoidolari bosqichlari bo'yicha qaror tanlov takliflarini baholash mezonlarini hisobga olgan holda tanlov komissiyasi tomonidan ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Ovozlar teng bo'lgan taqdirda raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

17. Tanlov komissiyasi majlislarida "Davarxitektqurilish" qo'mitasining vakolatli vakili ishtirok etadi.

Tanlov savdolari shakllari:

18. Tanlov savdolari quyidagilarga bo'linadi:

ochiq tanlov savdolari - oferentlar soni cheklanmaydi;

yopiq tanlov savdolari - oferentlar soni cheklanadi.

Yopiq tanlov savdolari o'tkazish to'g'risidagi qaror Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi.

19. Ochiq yoki yopiq tanlov savdolari talabgorning malakasi oldindan aniqlangan holda yoki aniqlanmasdan, yoxud ikki bosqichli bo'lishi mumkin.

Talabgorning malakasini oldindan aniqlash tanlov savdolarining birinchi turi, tanlov savdolarining g'olibini aniqlash - uning ikkinchi turi hisoblanadi.

20. Talabgorning malakasi oldindan aniqlanadigan ochiq yoki yopiq tanlov savdolari o'tkazishda talabgorlarning umumiy ro'yxati tuziladi, talabgorning malakasi oldindan aniqlanadi va malakasi oldindan aniqlangan talabgorlar o'rtasida tanlov savdolari o'tkaziladi.

21. Ikki bosqichli tanlov savdolari:

buyurtmachi tanlov savdolari predmetining aniq tavsifini va o'ziga xosligini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lmagan;

shartnomada ishlarni ularning rentabelligini ta'minlash uchun yetarli bo'lgan yoki tadqiq etish yoki ishlab chiqishga sarflangan xarajatlar qoplanishini ta'minlaydigan hajmlarda bajarish nazarda tutilgan hollardan tashqari, buyurtmachi ilmiy tadqiqotlar, eksperimentlar o'tkazishga, qidiruvlar yoki ishlanmalar yuzasidan shartnoma tuzish niyatida bo'lgan hollarda o'tkaziladi.

22. Ikki bosqichli tanlov savdolari quyidagi tartibda o'tkaziladi:

birinchi bosqichda kontseptual qaror va texnik, tijorat jihatidan aniqlanishi va tuzatilishi kerak bo'lgan, tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan shartlar asosida ishlab chiqilgan oferta bahosi ko'rsatilmagan holda taqdim etiladi. Tanlov savdolari predmeti parametrlari bo'yicha oferent bilan muzokaralar olib borilishiga yo'l qo'yiladi. Ofertalarning umumiy sonidan tanlov savdolarining ikkinchi bosqichida qatnashishga yo'l qo'yiladigan ofertalar tanlab olinadi;

ikkinchi bosqichda tanlov savdolari predmetining aniqlashtirilgan parametrlari hisobga olingan, bahosi majburiy tartibda ko'rsatilgan holda ofertalari tanlov savdolarining ikkinchi bosqichiga o'tgan qatnashchilarning takliflari va buyurtmanomalari berilgan holda tanlov hujjatlariga tuzatish kiritiladi.

Ikki bosqichli tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish qonun hujjatlariga muvofiq "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

23. Yopiq tanlov savdolari ishlar va xizmatlar yuqori darajada murakkabligi (yoki tor ixtisoslashuvi) bilan farqlanadigan va faqat pudratchilar (yyetkazib beruvchilar)ning cheklangan soni bilangina bajarilishi mumkin bo'lgan hollarda tashkil etiladi.

24. Yopiq tanlov savdolarini o'tkazishda tanlov savdolari tashkilotchisi pudratchilar (yyetkazib beruvchilar) umumiy sonidan oldindan yetarlicha malaka ma'lumotlariga ega bo'lganlarni, biroq ularning kamida uchtasini tanlaydi va ularga tanlov savdolarida qatnashishga taklifnoma yuboradi.

25. Agar pudratchilar (yyetkazib beruvchilar)ning umumiy soni ikkitadan ortiq bo'lmasa, u holda taklifnoma ularning har ikkalasiga yuboriladi va tanlov savdolari ularning ishtirokida o'tkaziladi.

Ulardan biri rad etgan taqdirda tanlov shartlari aniqlashtirilgan va/yoki unga tuzatishlar kiritilgan holda takroriy tanlov savdolari e'lon qilinadi.

26. Yopiq tanlov savdolarini tashkil etishda matbuotda e'lon berilmaydi, tanlov savdolari taklif etilgan talabgorlar o'rtasida o'tkaziladi.

27. Tanlov savdolari predmeti xaridining umumiy qiymati 25 ming AQSh dollariga teng summani tashkil etgan hollarda ular:

xarid qilinadigan tovar, ishlar va xizmatlarning tavsifi, miqdori, bajarish muddatlari va tovarni yyetkazib berish punkti ko'rsatilgan holdagi takliflarni talabgorlarga yuborish;

yyetkazib beruvchi yoki pudratchi tomonidan e'lon qilingan baho va tavsiflarni taqqoslash yo'li bilan erkin savdoda amalga oshirilishi mumkin.

28. Erkin savdoda xarid qilishda takliflarning yyetkazib beruvchi yoki pudratchi tomonidan aloqa kanallari orqali yozma shaklda taqdim etilishiga yo'l qo'yiladi.

29. Erkin savdoda xarid qilishda yyetkazib beruvchi yoki pudratchini tanlash baholash komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

30. Baholash komissiyasi buyurtmachi tomonidan kamida besh nafar vakolatli mutaxassisdan iborat tarkibda tayinlanadi. Baholash komissiyasining qarori protokol bilan rasmiylashtiriladi.

31. Quyidagi hollarda:

Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori mavjud bo'lganda;

xarid qilinadigan tovar (ish, xizmatlar) yagona yyetkazib beruvchi (pudratchi) tomonidan ishlab chiqarilsa (realizatsiya qilinsa);

import tovar Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi bilan kelishgan holda xarid qilinganda shartnomaning to'g'ridan-to'g'ri tuzilishiga yo'l qo'yiladi. (O'zR VM 08.09.2005 y. 206-son Qarori taxriridagi xat boshi)

32. Agar tanlov savdolari predmetining boshlang'ich qiymatiga nisbatan tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish xarajatlari iqtisodiy jihatdan foydali bo'lmasa, bunday ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar mustaqil lotlarga bo'lingan holda bitta tanlov savdolariga birlashtiriladi, bunda g'olib, qoidaga ko'ra, har bir lot bo'yicha aniqlanadi.

33. Buyurtmachining asoslangan qaroriga muvofiq tanlov savdolari predmetini lotlarga bo'lgan holda tanlov savdolari o'tkazilishiga yo'l qo'yiladi (qurilish va

montaj ishlari, asbob-uskunalarini xarid qilish va montaj qilish, yuklarni transportda tashish va hokazo).

Bunda g'olib, qoidaga ko'ra, har bir lot bo'yicha aniqlanadi, bosh pudratchi tashkilot funksiyasini buyurtmachi bajaradi va loyihada nazarda tutilgan ishlar va xizmatlarning butun kompleksi bajarilishi uchun javob beradi. Investor va/yoki buyurtmachi tovarlarni xarid qilishda tanlov savdolari predmeti bo'linishi uchun javob beradi.

34. Tanlov savdolarini keyinchalik tanlov savdolari predmeti uchun nazarda tutilmagan turlar bo'yicha o'tkazish imkonini beruvchi uning qiymatini pasaytirish maqsadida tanlov savdolari predmetini ongli ravishda bo'lishga yo'l qo'yilmaydi.

TALABGORGA QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI

35. Tanlov savdolarida qatnashish uchun talabgora quyidagi malaka talablari qo'yiladi:

tanlov savdolari predmeti qiymatining kamida 20 foizi miqdoridagi bo'sh aylanma mablag'larning yoki ko'rsatib o'tilgan mablag'larni berishga bank kafolatnomasi, ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat resurslari va mutaxassislarning mavjudligi;

shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala huquqiy layoqat va vakolatlar;

ustav sarmoyasining miqdori;

tanlov ob'yektiga o'xshash ob'yektlarda ishlash tajribasining mavjudligi;

o'z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

tanlov ob'yektida o'z kuchlari bilan bajariladigan ishlarning mo'ljallanayotgan hajmi (foizlarda).

Tanlov savdolarida qatnashish talabgoriga buyurtmachi tomonidan belgilanadigan boshqa talablar ham qo'yilishi mumkin.

36. Agar tanlov savdolari predmeti hisoblanadigan ishlar (xizmatlar)ni bajarish bilan bog'liq faoliyat qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalanishi kerak bo'lsa belgilangan tartibda berilgan tegishli litsenziyaga ega bo'lgan talabgorlar tanlov savdolarida qatnashishga qo'yiladi.

37. Tanlov komissiyasi talabgor (oferent)dan uning malaka ma'lumotlariga muvofiqligini tasdiqlovchi dalillarni hujjatli shaklda taqdim etishni talab qilishga haqlidir.

38. Talabgorlarga tanlov savdolarida qatnashishga malaka talablari tanlov hujjatlari tarkibida ko'rsatib o'tiladi.

39. Malaka talablariga muvofiq talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarni baholash tanlov hujjatlarida belgilangan tartibda tanlov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

40. Tanlov komissiyasi:

talabgorlarning o'z intellektual mulkini yoki tijorat sirini muhofaza qilish huquqini buzishga;

talabgorlar (oferentlar)ning tanlov hujjatlarida nazarda tutilmagan malaka ma'lumotlariga nisbatan mezonlar va talablarni belgilashga haqli emas.

41. Ta'sis hujjatlari, moliyaviy qatnashish, xolding shaklida va boshqa shakllarda ifodalangan bir-biri bilan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki moliyaviy bog'liq bo'lgan tashkilotlarning tanlov savdolarida qatnashishi taqiqlanadi.

42. Buyurtmachining tor ixtisoslashgan pudratchi tashkilotlari ochiq tanlov savdolarida umumiy asoslarda qatnashadilar, yopiq tanlov savdolarida esa tanlov savdolari tashkilotchisi kamida ikkita chet qatnashchini taklif qilishi shart.

43. Malaka ma'lumotlari to'g'risida noto'g'ri axborot aniqlangan taqdirda tanlov komissiyasi qarori bilan talabgor (oferent) bundan keyin tanlov savdolari tartibotida qatnashishdan chetlatiladi.

44. Malaka ma'lumotlari to'g'risida tanlov savdolari natijasiga ta'sir qilmaydigan unchalik muhim bo'lmagan noaniqliklar mavjud bo'lgan axborotni taqdim etgan talabgor (oferent)ga tanlov komissiyasi qarori bilan aniqlangan noaniqliklarni uning ofertasini ko'rib chiqish davomida tuzatishiga ruxsat etilishi mumkin.

45. Qayta tashkil etish (bo'linish, birlashish), tugatish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan, mulki xatlab qo'yilgan talabgorlar tanlov savdolari tartibotlarida qatnashishga qo'yilmaydi.

TANLOV SAVDOLARINI O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK

46. Tanlov savdolari tashkilotchisi tanlov savdolari to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon beradi yoki potentsial pudratchilarga (yyetkazib beruvchilarga) tanlov savdolarida qatnashishga taklifnoma jo'natadi.

47. Tanlov savdolari o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa yoki tanlov savdolarida qatnashishga taklifnomada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

tanlov savdolari tashkilotchisining nomi va manzili;

tanlov savdolari predmetini mablag' bilan ta'minlash manbalari;

tanlov savdolari predmetining tavsifi va uni sotish joyi;

tanlov savdolari predmetini sotish muddati;

talabgorlarga qo'yiladigan asosiy shartlar;

tanlov hujjatlarini sotib olish joyi va uning uchun to'lov miqdori;

ofertalarni taqdim etish joyi, oxirgi kuni va vaqti;

ofertalarni ochish joyi, kuni va vaqti.

Tanlov savdolari va/yoki talabgorning malakasini oldindan aniqlash to'g'risidagi e'lon ommaviy axborot vositalarida chop etiladi. Buyurtmachining qaroriga ko'ra xorijiy pudratchilar (yyetkazib beruvchilar) tanlov savdolarida qatnashishga taklif etilishi mumkin. Bunda e'lon, qoidaga ko'ra, eng ommaviy davriy nashrlarda, gazetalarda, web-saytda va /yoki BMTning Development Business nashrida, shuningdek xorijiy mamlakatlarning elchixonalari orqali taklifnomalar jo'natish vositasida amalga oshiriladi.

48. Ofertalarni taqdim etish muddati e'lon ommaviy axborot vositalarida chop etilgan kundan boshlab kamida o'ttiz kunni yoki taklifnomalar jo'natilgan kundan boshlab o'ttiz besh kunni tashkil etishi kerak.

49. Tanlov savdolari o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon faqat tanlov hujjatlariga ijobiy ekspert xulosasi mavjud bo'lgan taqdirdagina chop etilishi mumkin.

TANLOV HUJJATLARINING TARKIBI, TUZILISHI, ULARNI ISHLAB CHIQISH VA TASDIQLASH TARTIBI

50. Tanlov hujjatlari, qoidaga ko'ra, uch qismdan: umumiy, texnik va tijorat qismidan iborat bo'ladi.

51. Umumiy qismga quyidagilar kiradi:

tanlov savdolarida qatnashishga taklifnoma;

tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish yuzasidan shartnomaning umumiy shartlari;

talabgorlarning tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomalari shakli;

talabgorning malakasini hamda uning texnik va moliyaviy ahvolini baholash talablari va mezonlarini, takliflarni moliyaviy baholash va tanlov savdolari g'olibini aniqlash mezonlari, tanlov savdolari tartibotiga taalluqli boshqa hujjatlardan iborat bo'lgan yo'riqnoma.

52. Texnik qism Qurish, rekonstruktsiya qilish, texnika bilan qayta jihozlash, loyihalash, qurilish ob'yektlari uchun materiallar, konstruktsiyalar va jihozlar xarid qilishga doir tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi.

53. Tanlov hujjatlarining tijorat qismi ishlar (xizmatlar)ni bajarish va/yoki tovarni yetkazib berish shartlaridan, mablag' bilan ta'minlash manbalari va shartlaridan, tanlov savdolari predmetini sotish muddatidan, shartnoma loyihasidan iborat bo'ladi.

54. Buyurtmachi tomonidan e'lon qilingan narx bilan tanlov savdolari o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda tanlov savdolari predmetining boshlang'ich narxi e'lon va taklifnomada ko'rsatiladi. Bunda tanlov savdolari predmetining boshlang'ich narxini pasaytirish yuzasidan o'tkaziladi.

55. Ofertalarni taqdim etish tartibi tanlov hujjatlarida belgilanadi.

Taqdim etilayotgan oferta tanlov hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

56. Xorijiy pudrat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan va erkin muomaladagi valyutada haq to'lanadigan xorijiy kreditlar va grantlar hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda, agar xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan tuzilgan kredit shartnomalarida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, tanlov hujjatlariga ishlar (xizmatlar) qiymatining kamida

50 foizi miqdorida ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasining xo'jalik yurituvchi sub'yektlari - rezidentlari ishtirok etishi shartlari kiritiladi.

57. Tanlov va talabgorning malakasini oldindan aniqlash hujjatlariga, ofertani joylashga va markirovka qilishga, takliflarni texnik va moliyaviy baholash mezonlariga shartlar va talablar tanlov komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Ofertalarni taqdim etish muddati tugaguncha tanlov savdolari tashkilotchisi tanlov hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqlidir, tashkilotchi ular to'g'risida tanlov hujjatlarini olgan talabgorlarga darhol xabar qilishi, ofertalarni taqdim etish muddatini ofertaga tuzatish kiritish uchun yetarli bo'lgan vaqtga uzaytirishi kerak.

58. Tanlov hujjatlari ular uchun to'lov to'langandan keyin taqdim etiladi.

To'lov miqdori buyurtmachi va/yoki tanlov savdolari tashkilotchisi tomonidan, tanlov hujjatlarini ko'paytirish va tarqatish qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

59. Tanlov savdolari tashkilotchisi talabgorning so'roviga ko'ra tanlov hujjatlarining mohiyati yoki mazmuni bilan bog'liq bo'lgan savollarga yozma ravishda javob berishi, tanlov savdolarining barcha qatnashchilariga javobni so'rov manbaini ko'rsatmasdan yuborishi shart.

60. Tanlov savdolarining asosiy qatnashchilari va /yoki talabgorlar o'rtasida xabarlar, bildirishnomalar va boshqa axborotlarni almashish tanlov hujjatlari tarkibida tasdiqlangan shakl bo'yicha yozma ravishda amalga oshiriladi.

OFERTALARNI TAQDIM ETISH

61. Ofertaning amal qilish muddati tanlov hujjatlarida belgilanadi.

Oferta uni taqdim etishning oxirgi kuni va vaqti tugaguncha qaytarib olinishi mumkin.

62. Talabgorning imzosi va muhri qo'yilgan oferta savdolar tashkilotchisiga konvertga solib yelimlangan holda jo'natiladi.

63. Taqdim etish muddati tugagandan keyin olingan oferta ko'rib chiqilmaydi.

Ofertani taqdim etish sanasi tanlov savdolari tashkilotchisining pochta bildirishnomasidagi oferta olinganligi to'g'risidagi qayd bo'yicha yoki tanlov savdolari tashkilotchisining oferentga berilgan (oferta chopar orqali yetkazib beriladigan hol) oferta olinganligi to'g'risidagi bildirishnomasi sanasi bo'yicha belgilanadi.

64. Talabgor oferta tarkibida tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan, lekin tanlov savdolari predmeti hisoblab chiqilgan qiymatining ko'pi bilan 2 foizi miqdorida ta'minlashni taqdim etadi.

Ta'minlashning amal qilish muddati ofertaning amal qilish muddatidan kam bo'lmasligi kerak.

65. Buyurtmachi tanlov hujjatlarida ta'minlash kafilining ishonchliligi bo'yicha talablarni, uning shakllarini va tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani ta'minlashdan foydalanish tartibini belgilashi mumkin.

66. Tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani ta'minlash:

tanlov savdolari g'olibiga - shartnoma tuzilgandan keyin, shartnoma ijrosini talab qilinadigan ta'minlash taqdim etilgach;

qolgan oferentlarga - tanlov savdolari g'olibi bilan shartnoma tuzilgandan keyin, lekin ofertaning amal qilish muddatidan kechikmay;

ofertani qaytarib olgan oferentga - uni taqdim etishning oxirgi kuni va vaqti tugaguncha qaytariladi.

Buyurtmanomani ta'minlash uni qaytarish uchun asos paydo bo'lgan vaqtdan boshlab o'n kun mobaynida qaytariladi.

67. Tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani ta'minlash:

ofertani taqdim etishning oxirgi kuni va vaqti tugagach ofertani o'zgartirgan yoki uni qaytarib olgan oferentga;

tanlov savdolari g'olibiga - oferta uning amal qilish davrida qaytarib olinganda, tanlov hujjatlarida belgilangan shartlarda shartnoma tuzish yoki shartnoma ijrosining talab qilinadigan ta'minlanishini taqdim qilish rad etilganda qaytarilmaydi.

TANLOV SAVDOLARINI O'TKAZISH VA ULARNI YAKUNLASH

68. Tanlov savdolari, qoidaga ko'ra, buyurtmachi joylashgan joyda o'tkaziladi.

69. Tanlov komissiyasi majlisi ushbu Nizomning 48-bandida belgilangan muddat tugagandan keyin o'tkaziladi.

Majlis vaqtida ofertalar solingan konvertlar ochiladi, shartlar va tartibotlarga rioya qilinishi, tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan hujjatlarning mavjudligi tekshiriladi.

70. Ofertalar solingan konvertlarni ochish qatnashish istagini bildirishgan oferentlar yoki ularning vakolatli vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Tanlov komissiyasi majlisi natijalari protokol bilan rasmiylashtiriladi.

Tanlov komissiyasi majlislari natijalari to'g'risidagi axborot qatnashmagan oferentga yozma shaklda yetkaziladi.

71. Hujjatlar paketida tanlov hujjatlari talablarining buzilganligi aniqlangan taqdirda hujjatlar ularning mazmuni e'lon qilinmasdan oferentga qaytariladi.

72. Tanlov komissiyasi tanlov hujjatlarining e'lon qilingan shartlarga nomuvofiqligini yoki ofertani rasmiylashtirishdagi noaniqliklarni ular boshqa qatnashchilarning reytingiga ta'sir ko'rsatmaydigan va ularga yo'l qo'ygan tanlov savdolari qatnashchisiga ustunlik bermaydigan hollarda e'tiborga olmasligi mumkin.

73. Tanlov hujjatlari shartlariga javob beradigan ofertalar bo'yicha oferentning ismi (nomi), malaka ma'lumotlari, taklif qilingan narxlar va bajarish muddatlari, shuningdek oferent tomonidan tanlov hujjatlari talablariga muvofiq kiritilgan qo'shimcha takliflar hisobga olinadi.

74. Tanlov komissiyasi majlisida ofertani ko'rib chiqish davomida oferent tomonidan ofertaning mazmuni tushuntirib berilishiga yo'l qo'yiladi.

Bunda ofertaning mazmunini, shu jumladan narxi yoki bajarish muddatini o'zgartiruvchi tushuntirishlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

75. Ofertada arifmetik xatolar mavjudligi aniqlangan taqdirda so'zlar bilan ko'rsatilgan yakuniy summa to'g'ri miqdor sifatida qabul qilinadi.

76. Savdolarning turidan qat'i nazar, tanlov savdolari g'olibi tanlov komissiyasining yopiq majlisida aniqlanadi. Tanlov savdolari g'olibi tanlov savdolari qatnashchilari ishtirokida e'lon qilinadi, ishtirok etmagan qatnashchilar xabardor qilinadi.

77. Ofertalarni ko'rib chiqish, baholash va taqqoslash natijalari to'g'risidagi axborot oshkor qilinmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

78. Tanlov komissiyasining har bir majlisida protokol yuritiladi.

Qoidaga ko'ra, bu - talabgor malakasini oldindan aniqlash, konvertlarni ochish, tanlov savdolari g'oliblarini aniqlash va tanlov savdolari o'tkazish tartiboti bilan bog'liq bo'lgan boshqa protokollardir.

79. Tanlov savdolari buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangandan keyin tugallangan hisoblanadi.

80. Buyurtmachi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi bilan kelishilgan kundan boshlab besh kun muddatda ommaviy axborot vositalarida tanlov savdolari natijalari (predmeti, g'olibi, investitsiya loyihasining shartnomaviy narxi va uni amalga oshirish muddati) to'g'risidagi axborotni e'lon qiladi.

81. Tanlov savdolari agar:

ofertalarni taqdim etish muddatida uchtdan kam oferta tushsa, ushbu Nizomning 25-bandida ko'rsatilgan hollardan tashqari;

ofertalar tanlov hujjatlari shartlariga muvofiq bo'lmasa;

ofertalarda tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmanomani ta'minlash kafolati mavjud bo'lmasa;

oferentlar tomonidan taklif etilgan narxlar tanlov savdolari predmeti boshlang'ich qiymatidan ancha ortiq bo'lsa;

"Davarxitektqurilish" qo'mitasi bilan kelishuv bo'yicha tanlov komissiyasi tomonidan asoslangan boshqa holatlar paydo bo'lsa o'tkazilmagan hisoblanadi.

82. Tanlov savdolarining o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi asosiy qatnashchilardan birontasining mulkiy yoki boshqacha tushdagi javobgarligiga olib kelmaydi.

83. Agar tanlov savdolari o'tkazilmagan deb e'tirof etilsa tanlov savdolari takroran o'tkaziladi, bunda tanlov hujjatlari shartlarining qaytadan ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yiladi.

84. Tanlov savdolari tashkilotchisi ular tugallangandan keyin tanlov savdolari g'olibiga besh kundan kechikmay yozma bildirishnoma jo'natadi.

85. Shartnoma tanlov savdolari g'olibi bildirishnomani olgan kundan boshlab o'n kun muddatda tuziladi.

86. Agar tanlov savdolari g'olibi shartnoma tuzishni rad etsa yoki shartnoma ijrosini ta'minlashni belgilangan muddatda taqdim etmasa, u holda buyurtmachi tanlov komissiyasi bilan birgalikda ofertasi ikkinchi bahoni olgan oferentni tanlov savdolari g'olibi deb e'tirof etishi yoki takroriy tanlov savdolari o'tkazishni tayinlashi mumkin.

87. Shartnoma ijrosini ta'minlash miqdori buyurtmachi tomonidan, lekin tanlov savdolarida belgilangan qiymatning ko'pi bilan 10 foizi miqdorida belgilanadi.

88. Tanlov savdolari natijalari bo'yicha tuzilgan, erkin muomaladagi valyutada amalga oshiriladigan shartnomani ro'yxatdan o'tkazish belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida amalga oshiriladi. (O'zR VM 08.09.2005 y. 206-son Qarori taxriridagi band)

TANLOV HUJJATLARINI EKSPERTIZADAN O'TKAZISH HAMDA TANLOV SAVDOLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TARTIBI MONITORINGI

89. Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish, tanlov savdolarini o'tkazishning maqsadga muvofiqligi hamda uning metodlari va usullarining asoslanganligini aniqlash, tanlov savdolarini tashkil etish, tanlov savdolarini o'tkazish shartlari va tartibotiga rioya qilish monitoringi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

90. Tanlov hujjatlari ekspertizasi shartnoma asosida o'tkaziladi.

Tanlov savdolari tashkilotchisi tomonidan tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar shartlariga hamda ushbu Nizomga rioya qilinishi tanlov hujjatlari ekspertizasi predmeti hisoblanadi.

91. Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

tanlov savdolari predmeti va tashkilotchisi to'g'risidagi ma'lumotlar;

tanlov hujjatlari;

tanlov komissiyasini tayinlash va uning tarkibi to'g'risidagi buyruq;

moliyaviy resurslarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar (kredit shartnomasi, bank ma'lumotnomasi, qurilishlarning aniq manzilli ro'yxati, davlat boshqaruv organi qarori va boshqalar). Zarur hollarda ekspertiza organi savdolar tashkilotchisidan qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab oladi.

Import tovarlar (ishlar va xizmatlar)ni xarid qilishda buyurtmachi tanlov hujjatlari tarkibida Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining narxlar kon'yunkturasi bo'yicha xulosasini taqdim etadi. (O'zR VM 08.09.2005 y. 206-son Qarori taxriridagi xat boshi)

92. Tanlov hujjatlari ekspertizasi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan Qurilish, rekonstruktsiya qilish, texnika bilan qayta jihozlash, loyihalash, qurilish ob'yektlari uchun materiallar, konstruktsiyalar va jihozlar xarid qilishga doir tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom talablariga muvofiq o'tkaziladi.

93. Tanlov hujjatlari ekspertizasi va ekspertiza organi tomonidan tegishli xulosani berish ushbu Nizomning 91-bandida sanab o'tilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab o'n kun muddatda amalga oshiriladi.

Takroriy ekspertiza besh kun muddatda o'tkaziladi.

94. Quyidagilar monitoring ob'yekti hisoblanadi:

tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish, shartnoma tuzish;

loyihani amalga oshirishda tanlov savdolari shartlarining bajarilishi;

ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallarining ijrosi;

qurilishi tugallangan ob'yektni o'z vaqtida foydalanishga topshirish.

95. Monitoring buyurtmachi va pudratchi tomonidan tomonlarning tanlov savdolari shartlarini bajarishi to'g'risida "Davarxitektqurilish" qo'mitasi hududiy

boshqarmasiga har oyda taqdim etiladigan axborotlarni tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tanlov hujjatlariga buyurtmachi va pudratchi tomonidan axborotlar taqdim etish bo'yicha majburiyatlarni kiritish tanlov savdolari shartlarining uzviy qismi hisoblanadi.

Monitoring natijalarini umumlashtirish "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

96. "Davarxitektqurilish" qo'mitasi har chorakda Vazirlar Mahkamasiga tahliliy ma'lumotnomani takliflar bilan birga taqdim etadi.

NARXLARGA TUZATISHLAR KIRITISH VA SUG'URTA

97. Tanlov savdolarida belgilangan narx qat'iy narx hisoblanadi.

98. Birinchi moliyaviy yil mobaynida narxlarga hamda tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilish yuzasidan shartnomani bajarish muddatiga tuzatishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

99. Ikkinchi yil va undan keyingi yillar uchun shartnoma narxlariga tuzatishlar kiritish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

100. Tanlov savdolari g'olibi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ob'yekt qurilishining sug'urta qilinishini ta'minlaydi.

TANLOV SAVDOLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH XARAJATLARI

101. Tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish, tanlov hujjatlarini ishlab chiqish bilan bog'liq xarajatlar shartnoma asosida amalga oshiriladi.

102. Tanlov savdolari tanlov savdolari predmetini sotishning maqsadga muvofiq emasligi sababli bekor qilingan taqdirda ularni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar amaldagi xarajatlar bo'yicha buyurtmachi tomonidan qoplanadi.

TANLOV SAVDOLARI QATNASHCHILARINING JAVOBGARLIGI

103. Tanlov savdolari qatnashchilari qonun hujjatlariga va ushbu Nizom talablariga muvofiq javob beradilar.

104. Buyurtmachi:

tanlov komissiyasini shakllantirishda uning tarkibiga oid talablarga rioya etilishi;

tanlov savdolari predmeti uchun nazarda tutilmagan shakllar bo'yicha tanlov savdolarini amalga oshirish imkonini beradigan uning qiymatini kamaytirish maqsadida tanlov savdolari predmetini bo'lishga yo'l qo'yilishi;

tanlov savdolari g'olibi bilan shartnoma tuzish muddatining buzilishi;

shartnomada kelishilgan muddatlarda fizik, sifatga doir va texnik parametrlar bo'yicha shartnoma shartlarining bajarilmaganligi;

tanlov shartlarining bajarilishi monitoringi uchun noto'g'ri axborot taqdim etilganligi;

tomonlar o'rtasidagi shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi tugallangandan keyin uch yil mobaynida ofertalar originallarining saqlanmaganligi;

tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish tartibotlarining boshqacha buzilishlari uchun javob beradi.

Agar uning uchun qonun hujjatlariga muvofiq shartnoma tuzish shart bo'lgan buyurtmachi shartnomani tuzishdan voz kechsa yoki bosh tortsa tanlov savdolari g'olibi shartnomani tuzish yoki yetkazilgan zararni va boy berilgan foydani undirish to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qiladi.

105. Tanlov savdolari tashkilotchisi:

ofertalar taqdim etish muddati tugaguncha tanlov hujjatlariga tanlov hujjatlarini olishgan talabgorlarga o'z vaqtida xabar qilmasdan va ofertaga tuzatishlar kiritish uchun yetarli bo'lgan vaqt uchun ofertalarni taqdim etish muddatini uzaytirmasdan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi;

tanlov savdolari o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonni tanlov hujjatlariga ijobiy ekspert xulosasisiz chop etganlik;

arizalar va ofertalarni qabul qilib olishni rad etganlik, ularni hisobga olishni ta'minlamaganlik, konvertlarni ochishgacha ularning maxfiyligini va saqlanishini ta'minlamaganlik;

tanlov savdolarini o'tkazish tartiboti buzilganligi;

tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish tartibotining boshqacha buzilishlari uchun javob beradi.

106. Tanlov komissiyasi:

tanlov savdolarini o'tkazish tartibotlari bosqichlari bo'yicha kam ovoz bilan va/yoki tanlov takliflarini baholash mezonlarini hisobga olmasdan qaror qabul qilinganligi;

talabgor (oferent)dan uning malaka ma'lumotlariga muvofiqligini tasdiqlovchi dalillarni hujjatli shaklda taqdim etishning asossiz talab qilinishi;

talabgorlarning o'z intellektual mulki yoki tijorat sirini muhofaza qilishga bo'lgan huquqi buzilganligi;

talabgorlar (oferentlar)ning malaka ma'lumotlariga nisbatan tanlov hujjatlarida nazarda tutilmagan mezonlar va talablar belgilanganligi;

tanlov savdolarida qatnashishga:

muassislik hujjatlari, moliyaviy qatnashish, xolding shaklida va boshqa shakllarda ifodalangan bir-biri bilan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki moliyaviy bog'liq bo'lgan tashkilotlarning;

qayta tashkil etish (bo'linish, birlashish) tugatish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan, mulki xatlab qo'yilgan talabgorlarning qo'yilganligi;

talabgor (oferent)ning tanlov savdolari tartibotida qatnashishdan asossiz ravishda chetlatilganligi;

tanlov savdolarining boshqa qatnashchilari reytingiga ta'sir qilmaydigan, ularga yo'l qo'ygan tanlov savdolari qatnashchisiga ustunlik bermaydigan hollarda tanlov hujjatlarining e'lon qilingan shartlarga yoki ofertani rasmiylashtirishdagi noaniqliklarga nomuvofiqligi e'tiborga olinganligi;

oferta mazmunini o'zgartiradigan tushuntirishlar va tuzatishlarga yo'l qo'yilganligi, shu jumladan narxlar yoki bajarish muddati o'zgartirilganligi;

ofertani tanlov komissiyasi majlisida ko'rib chiqish davomida oferentning tushuntirish berishiga asossiz ravishda yo'l qo'yilmaganligi;

axborotning oshkor qilinganligi, savdolar qatnashchilarining o'zaro yoki jalb etilgan mutaxassislar bilan kelishuviga yo'l qo'yilganligi, shuningdek qonunga zid boshqa xatti-harakatlar qilinganligi;

tanlov savdolari g'olibining tanlov komissiyasining ochiq majlisida aniqlanganligi, tanlov savdolari g'olibini e'lon qilish tartiboti buzilganligi, ishtirok etmagan qatnashchilarning o'z vaqtida xabardor qilinmaganligi;

tanlov savdolari tartibotining boshqacha buzilishlari uchun javob beradi.

107. Tanlov savdolari g'olibi:

fizik, sifatga doir va texnik parametrlar bo'yicha shartnoma shartlarining shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda bajarilmaganligi;

tanlov shartlarining bajarilishi monitoringi natijalarining buzilganligi;

tanlov shartlari va shartnomaning boshqacha buzilishlari uchun javob beradi;

Agar tanlov savdolari g'olibi shartnoma tuzishni rad etsa yoki belgilangan muddatda shartnoma bajarilishi ta'minlanishini taqdim etmasa, u holda buyurtmachi tanlov komissiyasi bilan birgalikda ofertasi ikkinchi bahoni olgan oferentni tanlov savdolari g'olibi deb e'tirof etishi yoki takroriy tanlov savdolari o'tkazishni tayinlashi mumkin.

108. Tanlov savdolari tartibotidan kelib chiqqan kelishmovchiliklar va nizolar, buyurtmachi, savdolar tashkilotchisi yoki tanlov savdolari boshqa qatnashchilarining xatti-harakatlari va qarorlar yuzasidan shikoyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi belgilangan.

1.3. Kapital qurilishda tanlov savdolari va narxni shakllantirishning usul va uslublari

Jamiyat paydo bo'lgandan buyon va sivilizatsiyalashgan darajaga o'tgandan beri iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot tizimiga, shu jumladan materiallarni va boshqa buyumlarni ishlab chiqarish va qayta ishlashga tayangan holda rivojlangan.

Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash xalq xo'jaligining capital qurilishdagi yangi qurilish, kengaytirish, qayta tamirlash, harakatdagi

korxonalarni, bin ova inshootlarni qayta jihozlash bahosini aniqlash bo'yicha muhim ahamiyat kasb etadi.

Obyekt bahosining joriy narxi – bu yangi qurilish, kengaytirish, qayta ta'mirlash, korxona, bino va inshootlarni texnik jihozlash uchun kerakli bo'lgan jami mablag'lar umumiy sarfini hisoblash asosida aniqlanadigan, yoki o'xshash obyektlar yoki quvvatlarni bir quvvat birligi narxi loyiha (ishchi loyiha) asosida amalgam oshirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'laridir.

Qurilish bahosini belgilovchi omillar: quvvat birligi me'yoriy qurilish narxi ulishi, o'xshash obyektlar bahosi, loyiha (ishchi loyiha) ishchi hujjatlar, shu bilan birga chizmalar, qurilish va montaj ishlari hajmi ro'yxati, resurs smetalari, uskunalar spesifikasiyasi va ro'yxati, qurilishni tashkil etish loyihasida qabul qilingan qurilish navbati va qurilishni tashkil etishdagi asosiy xulosalar, hamda loyiha hujjatlarini tushuntirish xatlari;

Amaldagi smeta normalari (normasi) “smeta normasi va qoidasi “, hamda uskunalar, mebellar va inventarlarning korxonadan beriladigan, cheklangan ulgurji bir martalik narxlari.

Bozor munosabatlari sharoitida joriy narxlarda markazlashtirilgan va ularga teng bo'lgan manbalar hisobiga qurilayotgan obyektning shartnoma bo'yicha narxni belgilash tanlov savdolari natijalari bo'yicha amalgam oshiriladi.

Obyektlar va resurs smeta hujjatlari turlari. Resurs smeta hujjatlari ma'lum ketma – ketlik asosida izchillik bilan qurilishning mayda elementlaridan, yirikroq elementlariga , ish turini ko'rsatuvchi (xarajat) – ish bosqichi – obyekt topshiriladigan kompleks – qurilish navbati – umuman qurilish obyekti bahosini aniqlashga imkon beradi.

Umumiy texnologik yoki boshqa vazifalarni bajaruvchi (sexlar bloki, yoqilg'i ombori bilan birgalikdagi qozonxona , bir qancha rezervuarlar, suvzabor guruhi, tozalash yoki boshqa inshootlar) birlashgan bin ova inshootlar ham qurilish obyekti bo'lishi mumkin. Korxonalar , ishlab chiqarish yoki uy – joy fuqaro kompleksi qurilishida alohida obyektlarga tashqi tarmoqlar va ularga xizmat ko'rsatuvchi va ularga tegishli yordamchi inshootlar (suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlashtirish,

gazlashtirish, energiya ta`minoti va boshqalar ), shaxobcha yo`llari, korxona yoki kvartal ichki yo`llari, boshqa umum qurilish maydoni ishlari kiradi. Maxsuslashgan qurilish turlarining xususiyatlar u yoki bu bin ova inshootlarni yakka obyektlarga ajratishda hisobga olinadi. Ularga quyidagilar kiradi:

neft va gaz sanati neft va gaz quvurlari (foydalanish va izlab topish) unga tegishli barcha uskunalari, yordamchi inshootlari va ishlar bilan birgalikda;

ko`mir va tog` - kon ruda sanoatida kavlab borish bo`yicha va tog` - kon ishlari uskunalari va boshqa yer osti inshootlarining shaxtalari;

meloratsiya va suv xo`jaligida kanal yoki kanal qismi inshootlari, bilan birga yer maydonlarini hamma inshootlari va ish turlari bilan birgalikda meloratsiya etish;

temir yo`l qurilishida yer usti yoki yo`l qurilishida yuqorisi peregon yoki ajratilgan shaxobcha chegarasi, ma`lum bir bo`limdagi aloqa tarmoqlari , SMB (signallashtirish , markazlashtirish, bloklashtirish), elektro – energiya ta`minoti yoki kontakt tarmoqlari;

avtoyo`l qurilishida yer polotnosi, yo`l qoplamasi, suv o`tkazish quvurlari va avtoyo`l chegaralaridagi boshqa inshootlar. Tarmoq qurilishida (temir yo`l , avtomobil yo`llari, elektr uzatish tarmoqlari va aloqa, magistral quvurlari va shunga o`xshash ) obyekt qurilishi bo`lib binolar yoki inshootlar guruhi bir bo`lak chegarasida ( masalan: tirkalgan devorlar, yer ko`chishiga va yer siljishiga qarshi inshootlar, suv o`tkazgich quvurlari peregon chegarasida; yo`l ko`rsatish postlari, texnik qurilish shaxobchalari ayrilish shaxobchasi chegarasida;

kuchaytirilgan shaxobcha guruhi, aloqa masalari va SMB ma`lum bo`limda.

Agar qurilish maydonida loyiha asosida asosiy obyektlardan bittasi, yordamchi xo`jalik, yordamchi obyektlar ( masalan: sanoatda asosiy maqsadga mo`ljallangan sex binosi; transportda temir yo`l vokzali binosi, fuqaro qurilishida uy joy , teatr, maktab binosi va boshqalar ) qurilsa, u holda obyekt tushunchasi qurilish tushunchasi qurilish tushunchasi bilan muvofiq bo`lishi mumkin.

Qurilish bahosi capital qo`yilmalar tarkibiga binoan va qurilish – montaj tashkilotlar faoliyatini rejalashtirish tarkibiga nisbatan quyidagi ish turlari va xarajatlariga bo`linadi:

- qurilish ishlari;
- uskunalarni montaj qilish ishlari (montaj ishlari);
- uskunalar, jihoz va inventar xarajatlari;
- buyurtmachi va pudratchilarning boshqa xarajatlari.

Qurilish bahosini aniqlashda, qurilish ishlariga quyidagilar kiradi:

- bino va inshootlarni ko`tarish bo`yicha: yer, yig`ma va monolit temir beton va beton, g`isht, blok, metal, yog`och va boshqa qurilish konstruksiyalari, pol, tom, pardoiz (pardoizlash ishlari);
- kon yuzasidan ochish, burg`u – portlatish, ustun qoziq, tuproqni mustamkamlash, pastga tushadigan quduqlar moslamalari, quduqlarni burg`ulash, qurilish konstruksiyalari va uskunalarni zanglashdan himoya qilish, issiqlik izolyatsiya, tog` osti o`tish yo`llari, suv osti qurilish (g`avvozlik) ishlari;
- uy – joy va jamoat binolari elektr yoritish ishlari;
- ichki suv, kanalizatsiya isitish quvurlari, gaz ta`minoti, ventilyatsiya va havoni konditsionirovka qilish (qozonlarni isitish, radiatorlar, kaloriferlar, boylerlar, nasoslar va boshqa ichki quvur ishlari;
- mahsuslashtirilgan qurilishda bajariladigan ishlar, shu jumladan: avtomobil va temir yo`llari;
- ko`priklar va quvurlar; tonnel va metropolitenlar; tramvay yo`llari, aerodromlar, elektr uzatgich tarmoqlari; aloqa, radioeshittirish va televideniya inshootlari; gidrotexnik inshootlari konstruksiyalari, kemalar yo`li, sanoat pechlari va trubalari; neft va gaz quvurlarini burg`ulash (iz bilan birga dengiz sharoitida);
- erroziyaga, selga, lavaga, ko`chkiga qarshi va boshqa tabiiy ofatlardan himoya qilish inshootlari;
- qirg`oqni mustahkamlash ishlari; meliorativ ishlari ( sug`orish, qurilish, suvlantirish);
- tashqi tarmoqlar va suv bilan ta`minlash inshootlari, kanalizatsiya issiqlik va energiya ta`minoti, gaz quvurlari, magistral gaz – neft mahsulotlari quvurlari, oqava suvlarni tozalash inshootlari qurilish va atmosferani ifloslantirishdan himoya qilish ishlari;

- ko`kalamzorlashtirish, himoya daraxtlari va ko`p yillik mevali daraxtlarni o`tkazish ishlari;
- qurilish maydonlarini tayyorlash ishlari: daraxtlar va butalar, to`nkalarni sug`irib olish, maydonlarni tekislash, yer yuvish va relefni barpo etish, imoratlarni buzish va ko`chirish ishlari va boshqalar;
- asoslar, poydevorlar, bino va inshootlar qurilishi bilan bog`liq uskunalar o`rnatish uchun mo`ljallangan konstruksiyalarni, geologic va gidrogeologik (suvlarni chiqazib tashlash va boshqalar), tashqi chuqurlashtirish, kon – kapital va yuzasini ochish ishlari;
- boshqa ishlar smeta normalari to`plamlarida ko`rsatilgan qurish;
- konstruksiyalari va ishlari, shu jumladan korxona, bino va inshootlarni qayta ta`mirlash va texnik qayta jihozlash ishlarini bajarishda qurilish konstruksiyalarini qismlarga ajratish.

Qurilish bahosini aniqlashda montaj ishlariga quyidagilar kiradi:

hamma turdagi uskunalarni yig`ish va ichiga muntazam foydalaniladigan ( tekshirish va individual sinov kiritilgan holatda ) loyihada ko`rsatilgan joyga o`rnatish, shu jumladan compressor mashinalari, nasoslar, ventilyatorlar, elektromexanik qurilmalar, elektr pechlar, avtomatlashtirish va hisoblash texnikasi moslamalar;

elektr ta`minlash liniyalari va kuchaytirilgan elektr uskunalarga tarmoqlarni yotqizish, elektr tarmoqlariga ulash va elektr mashinalarini sozlashga topshirishga tayyorlash;

texnologik quvurlarni yotqizish va uskunaga suv, par, bug`, sovitish va boshqa suyuqliklarni uskunalarni montaj qilish narxi bo`yicha to`plamda ko`rsatilgan hajmda moslamalar orqali yetqazish; uskunalarni montaj etish normalari to`plamida ko`rsatilganidek shu jumladan harakatdagi korxona, bino va inshootlarni ta`mirlash va texnik qayta jihozlashni amalga oshirishda uskunalar, mashina va qurilmalarni qayta jihozlashni amalga oshirishda uskunalar, mashina va qurilmalarni qayta montaj qilish bo`yicha boshqa ishlar. Qurilish bahosida hisobga olingan uskunalar , mebellar va inventarlar narxi quyidagilardir:

Obyekt omboridan sotib olish (tayyorlash) va yetqazib berish narxi:

montaj etiladigan va montaj etilmaydigan uskunarlar kompleksini hamma xillari (texnologik, energetik, ko`tarish transporti, nasoskompressor va boshqalar), shu jumladan standartlanmagan (loyihalash bahosini hisobga olgan holda) orgtexnika, laboratoriya, har xil ustaxonalar, tibbiyot xonalari uskunalari;

sanoat ishlab chiqarishning texnologik jarayoni bilan bog`langan, loyihada ko`rsatilgan, quvurning balansiga kiritilgan, yuklarni yo`llar bo`yicha tashishga mo`ljallangan harakatdagi temir yo`l tarkibi, hamda ko`p bo`lmagan miqdordagi yuklarni tashish uchun mo`ljallangan boshqa turdagi maxsus harakatdagi transport vositalari; maydonlari, sexlarni va boshqa obyektlarni tozalash mashinalari, o`t o`chirish uskunalari;

nazorat o`lchov asboblari, avtomatlashtirish va aloqa vositalari;

asbob – uskuna, inventar, shtamplar, moslamalar, uskunarlar, ehtiyot qismlar, yarim fabrikatlarni tashish uchun maxsus konteynerlar yoki ishga tushiriladigan quvvatlarni boshlang`ich fondiga kiritilgan tayyor mahsulotlar;

yotoqxonalar, kommunal xo`jalik, maorif, san`at, sog`liqni saqlash, savdo obyektlarini boshlang`ich ta`minot talabi bo`yicha ichki tartibi uskunalari, asboblari, inventarlari jihozlari va boshqa predmetlari;

yakka buyurtma bilan uzoq, muddatda tayyorlanadigan mashinalar va murakkab texnologik uskunalarni loyihalash bahosi;

resurs smeta normasida, uskunalarni montaji uskunarlar bilan birga hisobga olingan materiallar, buyumlar, va konstruksiyalari bahosi;

uskunalarni montaj qilish bahosi.

Boshqa xarajatlarga qurilish va montaj ishlari bahosiga kirmagan hamma boshqa xarajatlarga mansubdir. Boshqa xarajatlarni qoplash mablag`i qoida bo`yicha butun qurilish bo`yicha aniqlanadi. Loyihalashtirilgan korxona, bino, inshootlar yoki ularning navbati qurilish narxini aniqlash uchun local, obyekt, ishlar hajmi resurs qaydnomasidan tashkil topgan umumiy resurs qaydnomasi tuziladi.

Local resurs smeta hujjatlari birlamchi hujjat bo`lib, ishchi loyihalari, ishchi hujjatlari (ishchi chizmalar) tayyorlanayotganda aniqlashtirib ayrim ish turlari

xarajatlariga, bino va inshootlar yoki umum maydon, ishlariga, ish hajmiga qarab tuziladi.

Obyekt resurs hujjatlari o`zining obyekt tarkibida local resurs hujjatlarini birlashtirib, smeta hujjati hisoblanadi va uning asosida buyurtmachi bilan pudratchi orasidagi hisob – kitob ishlari bajariladi.

Qurilishning umumiy resurs smetalari korxona, bino, inshootlar uchun korxonalar, binolar, inshoot qurilishining yangi, kengaytirib ta`mirlash va texnik qayta jihostlash ishlariga obyekt resurs qaydnoma asosida tuziladi.

Atrof – muhitni himoya qilish ishlari obyekt resurs qaydnomalar, korxona, bino yoki inshootlar qurilishida atrof muhitni himoya qilish tadbirlar ko`rsatilgan bo`lsa tuziladi.

To`liq rivojlanish resurslar hisobi loyihaning birinchi navbat tarkibiga kiradi va birinchi navbatdagi qurilish hamda keyingi navbatdagi qurilish resurs hisob – kitoblarni umumiy resurs qaydnomadagi malumotlarni o`z ichiga oladi.

Ayrim qurilish montaj ishlari turlariga local resurs vedomostlari (qaydnomalari), hamda uskunalar miqdori hisobi quyidagi ma`lumotlar asosida tuziladi:

binolar, inshootlar, ularning qismlari va konstruktiv elementlari o`lchamlari, ishchi loyiha bo`yicha qabul qilingan;

ishchi chizmalar orqali aniqlangan qurilish va montaj ishlari qaydnomasi bo`yicha qabul qilingan xajm, xajm ishlari;

konstruktiv elementlar, uskunalar mebel va inventarlarni buyurtma spesifikatsiyasi qaydnomasi va ishchi chizmalarining nomenklaturasi va miqdori;

ish turlari, konstruktiv elementlari, hamda uskunalar, mebel va inventarlarning harakatdagi resurs smeta normativlari; qabul qilingan texnik xulosa bo`yicha local resurs smetasini tuzganda, harakatdagi smeta normativlari yoki resurs talabini aniqlash usullarini ishlab chiqilgan imkoniyat quyidagi sharoitdan kelib chiqadi.

Agar ishchi chizmalar orqali resurs qaydnomasini tuzish uchun yiriklashtirilgan resurs smeta normasi (YRSN) dan foydalanish imkoni bo`lsa, u holda yiriklashtirilgan resurs smeta normasi qabul qilinadi. Agar yiriklashtirilgan resurs

smeta normativlari yo`q bo`lib, lekin mahalliy sharoitda bog`langan namunaviy, qayta ishlatiladigan loyihalar qurilishi bo`yicha iqtisodiy yakka loyihalar bo`lsa, u holda ana shu resurs smetalar qabul qilinadi.

Ayrim qurilish turlarini alohida hisobga olib, maxsus qurilish – pudratchi va montaj tashkilotiga moslab loyiha hujjatlari tarkibida local resurs qaydnomalari tuziladi. Binolar va inshootlar bo`yicha:

qurilish ishlari, maxsus qurilish ishlari, ichki sanitary texnika ishlari, ichki elektr yoritish, elektr kuchlangan uskunalari texnologik va boshqa tur uskunolari, nazorat o`lchov asboblari (NUA) va avtomatikasi, yengil tok o`tkazuvchi moslamalar (aloqa signal va boshqalar) asbob – uskunalar, mebellar inventarlarni sotib olish va boshqa ishlar;

umummaydon ishlari bo`yicha: qiya (vertical) tekislash, injenerlik tarmoqlar va yo`llarni o`rnatish, maydon chegarasini obodonlashtirish, kichik arxitektura formalari va boshqalar. Local resurs qaydnomasi binolar (inshootlar) ning ayrim konstruktiv bo`linmalari ishlar turidan va tuzilishidan iborat ma`lumotlari guruhlariga ajratiladi. Guruh tartibi qurilishning ayrim turlarining texnologik ketma – ketligini va uning maxsus talablariga muvofiq kelishi kerak. Bu tartibot sohalar bo`yicha normativ hujjatlar orqali chegaralangan bo`lishi kerak. Shu bilan birga binolar va inshootlarni yer osti qismi va yer usti qismlariga ajratish mumkin. Yuqorida aytilgan guruh prinsiplaridan quyidagilar kelib chiqadi: qurilish ishlarining local resurs qaydnomalari quyidagi bo`limlardan iborat bo`lishi mumkin: yer ishlari; yer osti poydevori va devorlar qismidan; devorlar, karkas, yopqich va tom oraliqlarni to`ldirish (deraza va eshik); zina va zina maydonchalari; pardoz ishlari; boshqa har xil ishlar (binoga kirish zinalari, bino trofidagi yo`laklar); maxsus qurilish ishlarining local resurs qaydnomalari quyidagi bo`limlardan iborat bo`lishi mumkin: uskunalar poydevori; maxsus asoslar; kanallar va chuqurchalar; obmurovka, futerovka va himoya materiallari; kimyoviy himoyalanish qoplamalari va boshqalar; ichki sanitary – texnik ishlari local resurs qaydnomalari quyidagi bo`limlarga ega bo`lishi mumkin: suv quvuri; kanalizatsiya; issiqlik quvuri; ventilyatsiya va havoni kondesatsiyalashtirish va boshqalar; uskunalarni o`rnatish

local resurs qaydnomalari bo`limlari quyidagilar; texnologik uskunalarni sotib olish va montaj; texnologik quvurlar; metal konsruksiyalar (uskunalarni o`rnatish bilan bog`liq) va boshqalar.

Local resurs qaydnomalari O`zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo`mitasi tomonidan tasdiqlangan “qurilish va montaj ishlari uchun tuzilgan resurs hisobi (smetasi) metodik tavsiyanomasida” ko`rsatilgan shakl orqali tuziladi. Loyiha ma`lumotlari asosida bino va inshootlarni ko`cherish, konstruksiyalarga ajratish (metall, temir – beton va boshqalar), ular natijasida qayta foydalanish uchun yoki yo`l – yo`lakay qurilishga ayrim materiallar (tosh, graviy, yog`och va boshqalar), bin ova inshootlar va boshqalarni ajratishi, ko`chirish local smetalarini jamlashda, ma`lumot uchun capital tushumlarni kamaytirish keltiriladi. Yo`l – yo`lakay topilgan materiallar bahosi ushbu ko`rinishda foydalanish mumkin bo`lmagani uchun, ularni amalga oshirganda franko – joy tayyorlash narxi hisobga olinadi (franko – karyer mahalliy va materiallar uchun, franko – yog`och daraxtlarni kesib (arralab) olinadigan yog`och mahsulotlari uchun ba shunga o`xshash). Agar ajratilgan yoki yo`l – yo`lakay materiallardan foydalanish yoki sotish imkoni (tasdiqlovchi hujjatlari) bo`lmasa, ular qurilish narxiga kiritilmaydi. Asosiy fondler hisobida turgan uskunalaridan foydalanganda va ularni qurilayotgan (ta`mirlanayotgan) binolari, kengaytirilayotgan, ta`mirlanayotgan yoki texnik qayta jihozlanayotgan harakatdagi korxonalari local resurs qaydnomalarida faqat demontaj va uskunalarni qayta montaj etish ko`rsatiladi. Hisobot resurs qaydnomasi so`ngida, texnik qayta jihozlashdan tashqari, ma`lumotnoma tarzida qurilishning umumiy bahosi yuqori tashkilotlar tasdiqlash uchun balans bahosi, loyihani (ishchi loyiha) texnik – iqtisodiy ko`rsatgichlari ko`rsatiladi.

**Buyurtmaning qurilishini boshlang`ich bahosini joriy narxda aniqlanishi.** Obyektning boshlang`ich bahosi shartnomaviy joriy narxda amaldagi nizom bo`yicha resurs usuli orqali aniqlanadi. Obyektning boshlangich bahosini aniqlash resurs usuli, loyihani amalgam oshirish uchun zarur bo`lgan joriy yoki prognoz narxlar va tariflarining xarajatlar kalkulyatsiyasini o`z ichiga oladi. Qurilish jarayonida ishlatiladigan resurslar:

asosiy ishlab chiqarishdagi ishchi va mexanizatorlarning xarajatlari;
 qurilish mashinalari va mexanizmlaridan foydalanish xarajati;
 materiallarni transportda tashish xarajatlari;
 natural o'lchovlarda ifodalangan material va energetik resurslari (materiallar, buyumlar, konstruksiyalar, texnologik talab uchun kerak bo'lgan energiya) sarfi;
 uskunalar, mebellar, investorlarni sotib olish xarajati;
 pudratchining boshqa xarajatlari;
 buyurtmachining "qurilishni foydalanishda tayyor holda qurib bitkazishdagi boshqa xarajatlari".

Bu bosqichda obyektni boshlang'ich bahosi joriy narxda ekspertizadan o'tgan, ko'rsatilgan tartibda tasdiqlangan loyiha hujjatlari asosida aniqlash buyurtmasiga ko'ra quyidagi tashkilotlar amalgam oshirishlari mumkin:

loyihalash institutlari;

ixtisoslashgan injiniring yoki konsalting kompaniyalari va O'zbekiston Respublikasi Davlarxitektqurilishni capital qurilishda iqtisodiy islohotlar va narxlarni shakllantirish markazi tomonidan hisoblangan obyekt qurilishining boshlang'ich bahosi tavsiya tariqasida bo'ladi. Konkurs savdolari o'tkazish uchun ushbu tavsiya etilgan boshlang'ich bahoni qabul qilish buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi. Obyektning boshlang'ich bahosi joriy narxda "resurs usuli" dan foydalanganda ushbu formula orqali aniqlanadi:

$$C=(C_M+C_{3\Pi}+C_{\Pi}+C_{\Sigma M}+\Pi\Pi+C_p) \times K_p,$$

yoki foydalanishga tayyor bo'lgan obyekt qurilishida:

$$C=(C_o+C_M+C_{3\Pi}+C_{\Pi}+C_{\Sigma M}+\Pi\Pi+C_p) \times K_p, \text{ bunda:}$$

C_o – uskunalar, mebel va inventarga ketgan xarajat;

C_M – qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalariga ketgan xarajat;

$C_{3\Pi}$ – asosiy ish haqi xarajatlari, ijtimoiy sug'urta to'lovlarini hisobga olgan holda;

$C_{\Sigma M}$ – mashina va mexanizmlarga sarf bo'lgan xarajatlar;

C_{Π} – ishlab chiqarishga mansub boshqa xarajatlar;

$\Pi\Pi$ – pudratchining boshqa xarajatlari;

C_p – qurilish va vaqtdagi qurilish obyektlarini sug'urta qilishga sarf bo'lgan xarajatlar;

K_p – navbatdagi yilga qurilishda narx o'sishining prognozlashtirilgan indeksidan kelib chiqadigan tavakkalchilik koeffisienti. Uskunalar, mebel, va inventarlar xarajati xarakatdagi resurs – smeta meyorlari asosida tuzilgan spesifikasiyalar asosida ishlab chiqaruvchi (ta'minotchi) korxona narxini ishlatib transport, tayyorlov ombor xarajatlari yoki narxlarni monitoring asosida tashkil etilib quyidagi formula orqali ifoda etiladi:

$$C_o = C_{o1} + C_{o2} + C_{o3} + \dots + C_{o\Pi}$$

Bunda:

$C_{o1}, C_{o2}, C_{o3}, C_{o\Pi}$ – uskunalarni ayrim turlari, mebellar, va inventarlarni bahosi;

$$C_{o\Pi} = N \times \Pi_{cp}$$

Bunda;

N – uskunalarni ayrim turlari, mebellar va inventarlarni miqdori

Π_{cp} – bir miqdordagi qurilish materiallarini (buyumlar, konstruksiyalar) transport va tayyorlov – omborlash xarajatining o'rtacha narxi. Turli uskunalarni o'rtacha narxi. Mebel va inventarlarni ishlab chiqaruvchi zavodlarni ulgurchi savdo narxi, birja va yarmarkalar narxi O'zbekiston Respublikasi Davlarxitektqurilish qo'mitasida ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar, Davlarxitektqurilishning narxlarning shakllantirish regional markazlari ma'lumotlari asosida aniqlash mumkin. Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarning xarajati umumlashgan resurs hisobi asosida, ishlab chiqilayotgan tanlov hujjatlari tarkibida ushbu regionda shakllangan transport va tayyorlov – omborlarini hisobga olgan holda bir miqdorini o'rtaja narxini ishlatib ushbu formula orqali topiladi:

$$C_M = C_{M1} + C_{M2} + C_{M3} + \dots + C_{M\Pi},$$

Bunda:

$C_{M1}, C_{M2}, C_{M3}, C_{M\Pi}$ – qurilish materiallarini va konstruksiyalarini ayrim turlari bahosi.

$$C_{M\Pi} = N \times \Pi_{cp},$$

Bunda:

N – qurilish obyekti uchun talab etilgan qurilish materiallarini (buyum, konstruksiya) ayrim turlari miqdori;

Иср – bir miqdordagi qurilish materiallarini (buyum, konstruksiya) regionlar bo'yicha transport va tayyorlash – omborlarini hisobi xarajatining o'rtacha narxi. Turli qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar)ni o'rtacha narxi, ko'tara savdo narxi, birja va yarmarkalar narxi. O'zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo'mitasi chiqarayotgan joriy narxdagi kataloglar. Davarxitektqurilishning narxlarni shakllantirish regional, markazlari ma'lumotlari, injiniring kompaniyalarini o'z shaxsiy bazasi narxida aniqlanishi mumkin. Yangi resurs smeta normalarini ishlab chiqarishi va tasdiqlanguniga qadar, qurilish materiallari boshqa materiallarni asosiy materiallarni jamidan 3% miqdorida, ESMda asosiy materiallar bo'lmagan hollarda asoslangan hisob kitoblar asosida qabul qilinadi; boshqa mashina va mexanizmlarni xarajatlarining jamidan 5 % o'lchovida, ESMda asosiy mashina va mexazmlar bo'lmagan hollarda asoslangan hisob kitoblar asosida qabul qilinadi. Ish haqi xarajatlari obyektning normativ mehnat sarfini bir qismining joriy qiymatiga (so'mlarda) va ijtimoiy sug'urta ajratmalar miqdorini hisobga oluvchi koeffisientga ko'paytirish yo'li bilan quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$C3_{\pi} = T \times C4 \times K_{cc}, \text{ bunda:}$$

T – tender hujjatlari tarkibida yoki ishga tushiriladigan obyektlarga o'xshash kishi – soatlarda aniqlanadigan obyekt qurilishining normativ mehnat sarfi;

C4 – ishchilarning o'rtacha soatlik ish haqi, obyekt qurilishi qiymatini hisoblab chiqishda statistic oylik ish haqi darajasidan kelib chiqib hisoblab chiqiladi;

Kcc – ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar miqdorini hisobga oluvchi koeffisient o'rtacha soatlik ish haqi quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$C_{\Gamma} = 3_{mc} : \Phi,$$

Bunda:

3_{mc} – oldingi 12 oy uchun statistika ma'lumotlari asosida, bir oy uchun hisoblab chiqilgan mintaqa bo'yicha quruvchilarning o'rtacha yillik ish haqi, oyiga so'm:

Φ – O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi ma'lumotlari bo'yicha soatlarda, ish vaqtining o'rtacha oylik fondi. Obyekt qurilishi qiymatini aniqlashda mashina va mexanizmlardan foydalanish xarajatlari qiymati joriy narxlarda quyidagi formula bo'yida qabul qilinadi:

$$C_{\Phi M} = \Phi_M \times \Pi_{pp},$$

Bunda:

Φ_M – mashina va mexanizmlardan foydalanishning soatlardagi hajmi;

Π_{pp} - mashina va mexanizmlardan foydalanishning soat/so'mlaridagi joriy narxlari. Buyurtmachining boshqa xarajatlari o'z ichiga ushbu xarajatni oladi:

loyiha qidiruv ishlari, loyiha hujjatlari va mualliflik nazoratini o'z ichiga olgan holda tanlov hujjatlari ekspertizadan o'tkazish;

tanlov savdosini o'tkazish;

texnik nazoratni amalga oshirish (DAKN xarajatini hisobga olib);

markazlashtirilgan manbalar hisobidan qurilayotgan obyektlar uchun, xarajatlar smetalarga asosan buyurtmachi tashkilot ta'minoti O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi bilan kelishilgan holda olib boriladi;

bank kreditini foizlar (bank qarzi hisobiga qurilayotgan obyektlarni moliyalashtirish);

buzib tashlangan imoratkesib tashlangan daraxtlar va butalar uchun egasiga to'lanadigan badal haqi;

obyekt qurilishi bilan bog'liq boshqa xarajatlar. Pudratchining boshqa xarajatlari obyektни boshlang'ich bahosini aniqlanganda foiz hisobida to'g'ri xarajatlar bahosidan qabul etilishi quyidagi formula orqali tavsiya etiladi:

$$\Pi_{\Pi} = (C_M + C_{3\Pi} + C_{\Phi M} + C_{\Pi}) \times Y$$

Bunda:

C_{эд} – materiallar, buymlar va konstruksiyalar xarajati;

C_{3Π} – ijtimoiy sug'urta bilan hisoblangan asosiy ish haqi xarajati;

$C_{\text{М}}$ – mashina va mexanizmlar xarajati;

$C_{\text{П}}$ – ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlar;

Y – pudratchining boshqa xarajatlarining salmog'i qurilish – montaj ishlariga nisbatan foiz hisobida olinadi. Boshqa ishlarning salmog'i obyektning boshlang'ch bahosini mintaqalar bo'yicha va faoliyat turlariga qarab O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining pudrat tashkilotlarining N 5 – C formasi asosida tuzilgan qurilish tashkilotlar tomonidan bajarilgan, mahsulot va xizmat ishlarining asosiy xarajat ko'rsatkichlari bulleteni bo'yicha qabul qilinishi mumkin. Obyekt qurilishining sug'urta qilish xarajati amaldagi nizomga ko'ra, sug'urta summasining 0,4% miqdorida qabul etiladi.

$$C_p = (C_{\text{М}} + C_{3\text{П}} + C_{\text{ЭМ}} + C_{\text{П}} + \Pi_{\text{П}}) \times 0,8 \times 0,4\%$$

Yoki: to'la tugallangan obyekt qurilishida

$$C_p = (C_o + C_{\text{М}} + C_{3\text{П}} + C_{\text{ЭМ}} + C_{\text{П}} + \Pi_{\text{П}}) \times 0,8 \times 0,4\%$$

Tavakkalchilik koeffisienti navbatdagi qurilish yiliga, qurilish narxini oshishiga qarab indeks orqali belgilanadi. Tavakkalchilik koeffisienti, qurilishning asosiy narxlarini belgilovchi komponentlarni o'zgartiruvchi, narxlarni o'sishi indeksi hisobi orqali aniqlanadi. Qurilishdagi asosiy tavakkalchilik koeffisienti narxlarni shakllantiruvchi komponentlar asosida bajariladi:

mehnat xarajatlari (eng kam oylik ish haqining o'zgarishi);

elektr energiyasi (O'zbekenergiya kompaniyasi);

yoqilg'i – moylash mahsulotlari (“ O'zbekneftgaz “ kompaniyasi);

metal (O'zbekmetallokombinat birlashmasi);

sement (sement zavodlari);

qum (zavod, karyerlar);

yig'ma temir – beton buyumlari (tayyorlovchi zavodlar);

yog'och –taxta materiallari (birja narxlari);

g'isht (tayyorlovchi zavodlar); va boshqa komponentlar.

Ushbu holda komponentlarning nomenklaturasi va har bir konkret obyekt uchun asosiy qurilish materiallari, asosiy narxlarni shakllantiruvchi komponentlarning qurilish obyekti bahosidan 70% dan kam bo'lmagan qismini

hisobga olgan holda qabul etiladi. Chunonchi, liniyalı inshootlarnı quvurlarını yotqızısh:

mehnat xarajati (minimal ish haqining o`zgarishi);

qurılısh mashinalari va mexanizmlari bahosi;

quvurlarning bahosi;

izolyatsiya materiallari bahosi;

Obyektning boshlang`ich bahosini aniqlaganda, O`zbekiston Respublikasining iqtisodiyot Vazirligini “qurılısh” tarmog`i bo`yicha prognoz etilgan inflatsiyasi, tavakkalchilik koeffisientini qabul qilish mumkin. Tanlovga qo`yilgan ishlarnı boshlang`ich bahosi qurılısh obyektini umumiy joriy narxidan “buyurtmachining boshqa xarajatlari” ni ayirgan hoda aniqlanadi. Tanlov shartlariga asosan, “foydalanishga tayyor holatli obyektı qurılısh “buyurtmachining boshqa xarajatlari”dan bir qismini tomonlarnı roziligi asosida pudratchiga va aksincha pudratchini bir qism xarajatlarini buyurtmachi o`ziga olishi mumkin.

II. BOB. Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining xo`jalik faoliyati tahlili

2.1. Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining asosiy texnik iqtisodiy ko`rsatkichlari

Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazi Navoiy shahrida faoliyat yuritayotgan qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish bilan shug'ullanuvchi qurilish tashkilotlaridan biri hisoblanadi. Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazi O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug'iga 1-sonli ilova . O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2003 yil 24 yanvarda ro'yxatga olingan. Markaz "Davlat Arxitektura Qurilish " qo'mitasi tasarrufidagi qurilish korxonasi hisoblanadi. Ushbu markaz yangidan qurilayotgan, ta'mir qilinayotgan va qayta qurilishga topshirilayotgan obyektlar uchun to'g'ri tanlovga ko'maklashadi ya'ni tanlov o'tkazadi. Markazning maqsadi to'g'ri tanlov asosida qurilish va ta'mirlash ishlarini olib borishga qaratilgan.

Markaz Navoiy viloyati, Navoiy shahar, S. Ayniy ko'chasi 32 – uyda joylashgan.

2.1-Jadval

Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining 2009-2010-2011 yillardagi asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

	Ko'rsatkichlar	O'lcho v birligi	2009 yil	2010 yil	2011 yil	Farq (+/-)	O'zg. Foiz
1	Sotishdan tushgan tushum	Ming so'm	100859. 4	102487.0	187918.1	85431.1	183.4
2	Yalpi foyda	Ming so'm	5768.4	102487.0	187918.1	85431.1	183.4
3	Sof foyda	Ming so'm	1811.3	4740.0	29440.5	24700.5	621.1
4	Mehnat resurslari	Kishi	5	5	7	2	1.4
5	Ish haqi fondi	Ming so'm	853	948	1680	732	177.2
6	Bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot	Ming so'm	20171.8	20497.4	26845.4	6348	130.9
7	Bir ishchiga to'g'ri keladigan ish haqi fondi	Ming so'm	170.6	189.6	240	50.4	126.7
8	Debitorlik qarzlari	Ming so'm	80 698.0	888 71.0	1164 25.1	27 554.1	1 31
9	Kreditorlik qarzlari	Ming so'm	10372.0	10428.8	24085.14	13656.3	230.9
10	Rentabellik	Foiz	0.9	13.2	27.6	14.4	2.09


2.1-jadvalda Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazi asosiy texnik –iqtisodiy ko'rsatkichlari yoritib berilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sotishdan tushum 2009 yilda 100859.4 ming so'mni, 2010 yilda esa 102487.0 ming so'mni 2011 – yilda esa 187918.1 ming so'mni tashkil qilib, 85431.1 ming so'mga, ya'ni 183.4 foizga oshgan. Sotilgan mahsulot tannarxi 2010 yil 194091 ming so'mni, 2011 yilda esa 255075 ming so'mni tashkil qilgan. Jamiyat 2011 yilda 2010 –yilga nisbatan yuqori samaradorlik ko'rsatkichiga erishgan.

Bozor munosablari sharoitida iqtisodiyotning erkinlashuvi, mulkning davlat tasarrufidan chiqarilib nodavlat sektorga berilishi, ayniqsa, xususiy mulkdorlar sinfining shakllanishi, iqtisodiyotni boshqarishda davlatning nazorat funksiyalarining qisqartirilishi, mulkiy javobgarlik va mas'uliyatining kuchayishi kabi holatlar evaziga sodir bo'ladi. Iqtisodiy tahlil korxona, firma faoliyatini o'rganadi, erishilgan natijalarni yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida ko'rsatib, ilg'or tajriba va g'oyalarni umumlashtiradi. Hamda iqtisodiy hodisa va jarayonlarni kelgusida to'g'ri boshqarish uchun dastur tayyorlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy tahlilning metodi dialektik metodga asoslangan bo'lib, uning predmeti makon va zamonda axborotlar manbaida ifodalangan ko'rsatkichlar kompleks o'rganishobyektiv samaradorligini oshirish, uning iqtisodiy qiymatini yuksaltirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash va boshqarishni takomillashtirish maqsadida qo'llaniladigan usullardan iborat.

Mahsulot tannarxida materiallar xarajatlari yuqori salmoqqa ega 60% - 80%

gacha. Shu bois tannarxni pasaytirish rezervlarni aniqlash maqsadida material xarajatini rejaga nisbatan o'zgarish sabablari aniqlanishi lozim. Tahlil uchun kerakli ma'lumotlar mahsulot kalkulyatsiyasi nomli hisobot shaklida mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar miqdori ularni turlari, materiallar bahosi keltirilgan. Tahlil etishda haqiqiy materiallar xarajati reja bilan taqqoslanib, ular o'rtasidagi farqiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Mahsulot tannarxini tahlil

qilishdan maqsad mahsulot narxini arzonlashtirishga erishish va uni bozor talablariga moslashtirish, unumli texnikadan foydalanish, qurilish jaranyonini qayta tashkil etishni boshqarish hisobiga amalga oshirish, qurilishning ratsional sur'at va muddatlarini tanlash, zahiralarini optimal boshqarish va qurilish mashinalarini yangilashga erishish.



2.1-RASM. Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining 2009-2010 -2011 yillardagi asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari gistogrammasi.

Mahsulot sotishdan tushgan tushum 2009 yil 100859.4 ming so'm , 2010 yilda esa 102487 ming so'mni 2011 – yilda esa 187918 ming so'mni tashkil qilgan. Yalpi foyda 2009 yilda 5768.4 ming so'mni 2010 yilga kelib esa, 102487 ming so'mni 2011 – yilda esa 187918 ming so'mni tashkil qilgan. Sof foyda 2009 yil 1811.3 ming so'mni, 2010 yilda esa 4740 ming so'm 2011 yilda esa 29440 ming so'm ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu ko'rsatkichlar korxonani 2011 yil 2010 yilga nisbatan samaradorlikka erishganini ko'rsatmoqda.

2.2. Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining moliyaviy natijalari va moliyaviy holati tahlili.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyektning oldiga qo'ygan asosiy maqsadi bu foyda olishdir. Moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobot va uni to'ldirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 140-sonli Yo'riqnomasi asosida belgilanadi.

Har bir korxonaning ish sharoitini hisobga olib iqtisodiy qonunlarning barcha talablarini nazorat qilishda shuningdek yangi imkoniyatlar topish, xo'jalik rentabelligini oshirib borish yo'llarini aniqlashda moliyaviy tahlil muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy tahlilning asosiy vazifasi xo'jalik iqtisodiyotini o'rganish, uni yanada rivojlantirish, takomillashtirish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarining sabablarini o'rganish hamda uni imkoniyatlarini boricha tugatishga yordam berishdan iborat. Moliyaviy tahlilning maqsadi hisobot ma'lumotlari orqali korxona xo'jalik faoliyati o'tgan davrda tahlil qilinayotgan vaqtda erishilgan va kelgusida erishiladigan moliyaviy natijalar hamda moliyaviy holatga har tomonlama baho berishdan iborat.

Moliyaviy tahlilning asosiy shakllari quyidagilar:

1. Gorizontal tahlil;
2. Vertikal tahlil;
3. Dinamik tahlil;
4. Nisbiy ko'rsatkichlar tahlili;
5. Makon tahlil.

Moliyaviy tahlil usullari:

a) An'anaviy- taqqoslash, guruhlash, zanjirli almashtirish, miqdor, integrallash, indeks ;

b) Matematik-bu usulda kompyuter orqali hisob-kitob qilinadi.

Tahlilda eng ko'p qo'llaniladigan usul taqqoslash usulidir. Bunda bir necha ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Jumladan, haqiqatda erishilgan bilan majburiyatlarni taqqoslash. Yillik yoki davriy ma'lumotlar bilan taqqoslash. Shuningdek, tuman, viloyat va mamlakatlarning o'rtacha ma'lumotlari bilan taqqoslash mumkin. Daromad va xarajatlarga bu tarkib turkumlanishi quyidagilarga imkon beradi:

- Ishlab chiqarish xarajatlarini boshqa xarajatlardan farqlash va korxona ishlab chiqarish faoliyati samaradorligiga baxo berish;


- Moliyaviy boshqaruv yuzasidan operatsion xarajatlarni boshqa xarajatlardan farqlash;

- Korxona tomonidan olinadigan daromadlarni ularning yuzaga kelishi va shakllanishi bo'yicha aloxida tarkiblash.

Moliyaviy xisobotlardagi ma'lumotlarda hech qachon bir turkum axborot foydalanuvchilar foydasiga , boshqa turkum zarari xisobiga aks ettirishlar bo'lmasligi talab etiladi. Mazkur moliyaviy xisobotlarni tuzishdagi betaraflik qoidasi O'zbekiston Respublikasining “ Buxgalteriya xisobi to'g'risidagi “ Qonunning 6 moddasida ham berib o'tilgan.

2.2 - jadval. Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining 2009 - 2010 - 2011 yillardagi moliyaviy natijalari tahlili.

N	Ko'rsatkich	O'lchov birligi	2009 yil	2010 yil	2011 yil	Farq (+/-)	O'zg. foiz.
1	Sotishdan tushgan tushum	Ming so'm	100859.4	102487.0	187918.1	85431.1	183.4
2	Ishlab chiqarish tannarxi	Ming so'm	112619	255075	442371	187296	173.4
3	Yalpi foyda	Ming so'm	5768.4	102487.0	187918.1	85431.1	183.4
4	Davr xarajatlari	Ming so'm	2767.4	95175	154143	58968	161.9
5	Ma'muriy xarajatlar	Ming so'm	17998	62913	94635	31722	150.4
6	Asosiy faoliyatdan olingan foyda	Ming so'm	3001	7312	23774	16462	325.1
7	Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda	Ming so'm	3045	7873	40733	32860	517.3
8	Soliq to'lagunga qadar foyda	Ming so'm	3397	7873	40733	32860	517.3
9	Daromad solig'i	Ming so'm	1189.7	7199	12292	5093	170.7
10	Sof foyda	Ming	5768.4	102487.0	187918.1	85431.1	183.4



2.2-Rasm. Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining 2009 – 2010 - 2011 yillardagi moliyaviy natijalari tahlili gistogrammasi.

Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining 2010-2011 yillardagi moliyaviy holati tahlili.

2.3-jadval. Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining buxgalteriya balansi aktiv qismi tahlili.

T/r	Ko'rsatkichlar	2010		2011		O'zgarish	
		Ming so'm	Foiz	Ming so'm	Foiz	+/-	Foiz
1.	Uzoq muddatli aktivlar	5312.8	4.2	6414.42	3.8	1104.62	2.6
1.1	Asosiy vositalar qoldiq qiymati	4987.0	3.9	5989.4	3.5	1002.4	2.4
2.	Joriy aktiv	120016.8	95.7	161295.07	96.2	41278.27	97.4
2.1	Tovar moddiy zahiralar	7331.78	5.8	6797.21	4.1	534.57	1.3
2.2	Debitorlik qarzlari	88871.7	70.9	116128.1	69.2	27256.4	64.3
2.3	Pul mablag'lari	22584.9	18,02	38201.7	22.8	15616.8	36.8
	Jami (1+2)	125329.7	100	167709.5	100	42379.8	100

2.4-jadval. Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining buxgalteriya balansi passiv qismi tahlili.

T/r	Ko'rsatkichlar	2010 yil		2011 yil		O'zgarish	
		Ming so'm	Foiz	Ming so'm	Foiz	+/-	Foiz
1.	O'z mablag'lari manbalari	115489.8	91.7	143640.4	85.6	28150.6	67.3
1.1	Rezerv kapitali	7804.6	6.1	7876.6	4.6	72.0	0.17
1.2	Taqsimlanmagan foyda	107685.2	85.5	135763.8	80.9	28078.6	67.2
2	Majburiyatlar	10428.05	8.2	24069.1	14.3	13640.25	32.6
2.1	Joriy majburiyatlar	10428.85	8.2	24069.1	14.3	13640.25	32.6
	Jami (1+2)	125918.6	100	167699.5	100	41780.9	100

Asosiy vositalar tahlilining vazifalari:

asosiy vositalar tarkibi strukturasi o'zgarish sabablarini aniqlash;

asosiy vositalarning texnik holatini ifodalovchi texnik ko'rsatkichlarni aniqlash;

mashina uskunalarini vaqti va quvvati bo'yicha foydalanishni tahlil qilish

asosiy vositalarning samarali ko'rsatkichlarini hisoblash;

hisob tizimida asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya hisoblash

Asosiy vositalar 2 qismga bo'linadi. aktiv va passiv vositalarga. Aktiv: mashina va uskunalar o'lchov va tartibga soluvchi uskunalar. Passiv: ishlab

chiqarish uchun sharoit yaratib beruvchi asosiy vositalarga aytiladi. Ularning tarkibiga bino va inshootlar kiradi.

Tahlil etishda jami asosiy vositalar tarkibida ularning salmoq darajalariga baho beriladi va o'zgarishlar kiritilib, o'rganib chiqiladi.

2.5 – jadval. MARKAZNING ASOSIY VOSITALAR VA ULARDAN FOYDALANISH KO'RSATKICHLARI TAHLILI.

	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2009 yil	2010 yil	2011 yil	Farq (+/-)	O'zg. %
1	Asosiy vos. boshlang'ich qiymat	Ming so'm	12269	12269	31706.6	19437.6	258.4
2	Asosiy vos. eskirish summasi	Ming so'm	5176.0	7295.6	26317.1	19021.5	360.7
3	Asosiy vos. qoldiq qiymat	Ming so'm	7093	4987.0	6689.4	1702.4	134.1
4	Asosiy vos. eskirish darajasi	Foiz	0.42	0.59	0.83	0.24	140.6
5	Asosiy vos. yaroqlilik darajasi	Foiz	0.57	0.41	0.21	-0.20	95.2

**2.6 – jadval. MARKAZNING ASOSIY VOSITALARNING
SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI.**

	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2009 yil	2010 yil	2011 yil	Farq (+/-)	O'zg %
	Mahsulot sotishdan tushgan tushum	Ming so'm	100859.4	102487	187918	85431	183.4
	Asoosiy vos. boshlang'ich qiymati	Ming so'm	12269	12269	31706.6	19437.6	258.4
	Fond qiymati	Ming so'm	8.22	8.35	5.92	- 2.4	70.9
	Fond sig'mi	Ming so'm	0.12	0.12	0.17	5	141.6

Asosiy vositalarning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Asosiy vositalarning eskirish darajasi;

Asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari:

Fond qiymati;

Fond sig'imi.

Fond sig'imi deganda bir so'mlik mahsulotga qancha asosiy vosita sarflangani tushuniladi. Fond sig'imi foizda hisoblanib, qancha minusga yaqinlashsa shuncha yaxshi.

Fond qiymati esa aksincha, qancha yuqori bo'lsa shuncha yaxshi.

2.3.Qurilish korxonalari faoliyatida obyekt qiymatini aniqlashning joriy narxlar tahlili.

2.7 – jadval. Qurilish korxonalari faoliyatida obyekt qiymatini aniqlashning joriy narxlar tahlili.

T /r	Xarajatlar nomi	Joriy narxdagi qiymati (ming so`m)	O`zgar ish nisbati %
1	Ish haqi xarajatlari	66526,343	23,2
2	Ijtimoiy sug`urta qilish	16631,586	5,8
3	Mashina va mexanizmlar	498,603	0,2
4	Qurilish materiallari	174477,344	60,8
5	Mebel va uskunalar	19200,000	6,7
6	Transport xizmatlari	9491,869	3,3
Jami		286825,745	100,0

Qurilish korxonalari faoliyatida obyekt qiymatini aniqlashning joriy narxlar tahlilini Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazining hujjatlari asosida ko`rib chiqamiz. Tahlil qilish jarayonida shuni ko`rishimiz mumkinki, barcha to`g`ri xarajatlar (ish haqi xarajatlari, ijtmoiy sug`urta qilish, mashina va mexanizmlar, qurilish materiallari, mebel va uskunalar, transport xizmatlari)ni ko`rib chiqib ularning o`zgarish qiymatini jami xarajatlar yig`indisiga nisbatan foizlarda aniqladik. Bu xarajatlar qurilishda narxni shakllantirish hamda smeta ishida asosiy ko`rsatkichlar hisoblanadi. Jami to`g`ri xarajatlar 286 825,745 ming so`m va 100% ni tashkil qildi. Ish haqi xarajatlari 66 526,343 ming so`m, 23.2% ni tashkil qildi. Ijtimoiy sug`urta qilish xarajatlari 16 631,586 ming so`m va 5.8% ni, mashina va mexanizmlar 498,603 ming so`m 0.2% ni, qurilish materiallari 174 477,344 ming

so'mni 60.8% ni, mebel va uskunalar 19 200,000 ming so'mni va 6.7% ni, transport xizmatlari esa 9 491,869 va 3.3% ni tashkil qildi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ish haqi xarajatlari obyektning normativ mehnat sarfini bir qismining joriy qiymatiga (so'mlarda) va ijtimoiy sug'urta ajratmalar miqdorini hisobga oluvchi koeffisientga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Yana shuni qo'shimcha qilib aytish mumkinki, barcha qurilish ishlarini shartnomaviy joriy narxlarda baholash jarayonida qurilishning asosiy narxini belgilovchi komponentlarni o'zgartiruvchi, narxlarni o'sishi indeksining hisobini yanada takomillashtirish, tavakkalchilik koeffisientlarini zamonaviy talablarga asosan ko'rib chiqish, kerakli o'zgartirishlar kiritish, qurilish materiallari uchun, mebel va uskunalar uchun transport sarflarini hisoblashning yangi usullarini joriy qilish, yanada takomillashtirish qurilish ishlarini baholash jarayonida birmuncha yengilliklar hamda qurilish ishlarini shartnomaviy joriy narxlarda baholashning yanada aniqlashtirilishiga olib kelishiga min bo'ldik.

III. BOB Kapital qurilishda tanlov savdolari va narxni shakllantirishni takomillashtirish

3.1. Kapital qurilishda narxlarni shakllantirish mexanizmini takomillashtirish

Qurilish qiymatini qisqartirish maqsadida pudrat ishlari va ularni bajarish uchun zarur bo'lgan moddiy – texnika resurslari bozor narxlarining o'z – o'zini tartibga solishi uchun shart – sharoitlar yaratish yo'li bilan qurilishda vujudga kelgan narx belgilash tizimiga jiddiy o'zgartirishkar kiritish nazarda tutilmoqda, bu zaruratga qarab monopoliyaga qarshi narxni tartiga solishda davlat ta'sirini inkor etmaydi.

Obyekt yoki xizmat uchun chegaralangan oxirgi narxni belgilangan holda qurilish, loyihalashtirish, materiallar, konstruksiyalar va asbob – uskunalar xarid qilishga buyurtmalarni tender savdolari tizimi orqali joylashtirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Yakuniy natijalar uchun moliyaviy javobgarlik pudratchiga yuklanadi, qurilishning amaldagi qiymatini pasaytirish natijasida erishilgan mablag`lar esa uning ixtiyorida qoladi va amaldagi sarf – xarajatlarni va qurilish muddatlarini qisqartirishni rag`batlantirish uchun xizmat qiladi.

Pudratchilar bilan hisob – kitoblarni kontrakt qiymatining kontraktlarda kelishib olingan muayyan foizgacha avans to`lovlari bilan amalgam oshirish mo`ljallanmoqda. Yakuniy hisob – kitoblarni obyekt qurilishi tugallangandan va u foydalanishga topshirilgandan keyin amalga oshirish nazarda tutilgan.

Qurilish qiymatini pasaytirish maqsadida:

Loyiha – qidiruv va pudrat qurilish ishlarini amalgam oshirish yuzasidan barcha tender takliflarida loyiha va qurilish ishlarining boshlang`ich qiymati va tender qatnashchilarining tegishli tanlov takliflari faqat chegaralangan miqdorlarda belgilanadi;

2000 yil 1 yanvardan boshlab qurilish qiymatining qimmatlashishi indekslarini qo`llash to`liq bekor qilinadi va barcha investitsiya loyihalarining qiymati amaldagi narxlarda belgilanadi;

Buyurtmachi tomonidan loyiha – smeta hujjatlarini ishlab chiqish xizmatlari uchun haq to`lash mustaqil ekspertiza o`tkazilgandan keyin amalga oshiriladi;

Shartnomalarning o`z vaqtida bajarilmagani uchun moddiy zarar pudratchi tashkilotlar tomonidan qoplangan holda obyektlarni qirish muddatlarini qat`iy tartibga solish nazarda tutilmoqda;

Agar buyurtmachining aybi bilan loyiha – smeta hujjatlari o`z vaqtida taqdim etilmagan va asbob – uskunalar yetkazib berilmagan hamda boshqa majburiyatlar bajarilmagan bo`lsa, unda buyurtmachi javob beradi va pudratchiga yetkazilgan moddiy zararni to`laydi;

Shartnomalarning muddatida bajarilmagani uchun moddiy zararining miqdori va smetadan ortiq barcha xarajatlari oldingi davrdagi tender savdolarining o`rtacha narxlari bo`yicha yoxud birja narxlari bo`yicha belgilanadi;

Ijtimoiy – madaniy sohalar (turar – joy, sog`liqni saqlash, ta`lim) obyektlarini qurishda namunaviy loyihalardan keng foydalaniladi;

Ham me`yoriy bazani takomillashtirish hisobiga, ham qurilish tashkilotlarini boshqarish tuzilmasini tartibga solish hisobiga qurilishda qo`shimcha xarajatlarni keskin qisqartirish chora – tadbirlari ko`riladi.

Qurilish muddatlarini qisqartirish maqsadida ishlarning smenaligi cheklanmagan holda vaxta usulini rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Respublika mintaqalarida qurilish qiymati, qurilish materiallari, konstruksiyalar, transport, qurilish mexanizmlari va ishchi kuchi narxlari aniq darajasini ro`yxatdan o`tkazish va tahlil qilish bo`yicha ma`lumotlar bankini shakllantirish uchun xo`jalik hisobidagi axborot – tahlil marketing firmalarining tashkil etish mo`ljallanmoqda.

Qurilish materiallari va konstruksiyalariga bo`lgan talabning mavsumiy va texnologik talabning o`zgarishini hisobga oluvchi, narxlarning o`zgaruvchan tizimiga ega bo`lgan qurilish materiallari va konstruksiya materiallari bilan savdo qiluvchi ixtisoslashtirilgan ulgurchi ta`minot – savdo firmalari tarmoqlari tashkil etilmoqda.

Qurilish qiymatini qisqartirish maqsadida pudrat ishlari va ularni bajarish uchun zarur bo`lgan moddiy – texnika resurslari bozor narxlarining o`z – o`zini tartibga solishi uchun shart – sharoit yaratish yo`li bilan qurilishda vujudga kelgan narx belgilash tizimiga jiddiy o`zgartirishlar kiritish nazarda tutilmoqda, bu zaruratga qarab monopoliyaga qarshi narxni tartibga solishda davlat ta`sirini inkor etmaydi.

Obyekt yoki xizmat uchun chegaralangan oxitgi narxni belgilangan holda qurilish, loyihalashtirish, materiallar, konstruksiyalar va asbob – uskunalar xarid qilishga buyurtmalarni tender savdolari tizimi orqali joylashtirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

Yakuniy natijalar uchun moliyaviy javobgarlik pudratchiga yuklanadi, qurilishning amaldagi qiymatini pasaytirish natijasida erishilgan mablag`lar esa uning ixtiyorida qoladi va amaldagi sarf – xarajatlarni va qurilish muddatlarini qisqartirishni rag`batlantirish uchun xizmat qiladi.

Pudratchilar bilan hisob – kitoblarni kontrakt qiymatining kontraktlarda kelishib olingan muayyan foizgacha avans to`lovlari bilan amalgam oshirish

mo`ljallanmoqda. Yakuniy hisob – kitoblarni obyekt qurilishi tugallangandan va u foydalanishga topshirilgandan keyin amalga oshirish nazarda tutilgan.

Xulosa

Mamlakat iqtisodiyotini bozor iqtisodiyotiga o'tishi, shu bilan birga xususiylashtirishning turli ko'rinishlarini shakllanishi iqtisodiy tartiblarini oldingi holati va mazmunini o'zgarishiga olib kelmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar qurilish yo'nalishidagi iqtisodchi menejerlardan qurilish tarmog'idan jamlangan iqtisodiy tendensiyalar hamda ularni kelib chiqish qonuniyatlariga o'zgacha tasavvur qilishlarini talab etmoqda.

Qurilish iqtisodiyotni katta tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Qurilish xalq xo'jaligi uchun ishlab chiqarish kuchi hamda asosiy fondlarning keng ko'lamda qayta ishlab chiqarishini taminlaydi.

Qurilish ishlarini tanlov savdolari asosida amalga oshirish chet el investrlariga , buyurtmachilariga, davlat tashkilotlari hamda, xususi korxonalarga bir qancha imkoniyatlarni, imtiyozlarni yaratishga va raqobatni shakllantirishga, qo'llab quvvatlashga shart – sharoitlarni yaratib beradi. Bu esa mamlakatimizna rivojlantirishga turli ko'rinishdagi, murakkab yechimli, zamonaviy, jahon standartlariga javob bera oladigan turar joy, sanoat inshootlarining yaratilishiga turtki bo'ladi.

Yuqorida takidlanganlardan kelib chiqqan holda qurilish korxonalarini barpo etish xo'jalik faoliyatini samaradorligini oshirish aynan shu nuqtai nazardan ko'rib chiqilmog'i zarur. Qurilish korxonasi xo'jalik faoliyatining samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar yakka holda emas, balki o'zaro bog'liq holda qaralishi kerak.

Tanlov savdolari va shartnomaviy narxlar asosida tovar va moddiy zahiralarni sotib olish, xizmat ko'rsatish, qurilish montaj ishlarini olib borishda korxonalarimiz xo'jalik yurutuvchi subyektlariga keng imkoniyatlar ochib beradi.

Hozirgi kunda kichik biznes subyektlari yalpi ichki mahsulotning qariyb 50% ini ishlab chiqarmoqda. Xolbuki 2000 yilda bu ko'rsatkich 30% ni tashkil etgan. bunday natija birinchi navbatda kichik biznes va xususi tadbirkorlik davlat tomonidan doimiy qo'llab quvvatlanayotgani samarasidir. Kichik sanoat

korxonalari ichun yagona soliq to'lovi 8% dan 7% ga kamaytirildi. yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa qayt etilgan soliq miqdori o'rtach 1,3 barobar kamaytirildi.

Diploma ishi doirasida, Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazi misolida korxona faoliyati misolida tahlillar olib borildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki korxonadan mahsulot sotishdan tushgan tushum 2009 yilda 100859.4 ming so'mni, 2010 yilda esa 102487,0 ming so'mni 2011 – yilda esa 187918 ming so'mni tashkil qilib 85431 ming so'mga ya'ni 183 % ga oshgan. Bajarilgan qurilish montaj ishlari tannarxi 2009 yilda 194091 ming so'mni 2010 yilda esa 102487 ming so'mni 2011 – yilda esa 187918.0 ming so'mni tashkil qilgan. Yalpi foyda 2009 yilda 5768,4 ming so'mni 2010 yilda esa 111765 ming so'mni tashkil qilgan sof foyda esa 2009 yilda 1811,3 ming so'mni 2010 yilga kelib esa 79638 ming so'mni tashkil qilgan. Debitorlik qarzlari ham yildan yilga oshganligini ko'rish mumkin. 2010 yilda debitorlik qarzlari 88871.7 ming so'mni 2011 yilda esa 116426.1 ming so'mni tashkil qilgan.

Mustaqil ta'limning tadqiqot natijalariga asoslanib Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazida mavjud muammolarni va kamchiliklarini bartaraf etish borasida quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman:

yangi texnika va texnologiyalarni lizing shartnomalari asosida xarid qilish ishlarini jonlantirish va qurilish montaj ishlarini bajarishda ko'proq mahalliy xom ashyo va tovarlardan foydalanadigan qurilish korxonalariga obyekt qurilishini topshirish;

qurilishda menejment samaradorligini oshirish maqsadida qurilish montaj ishlari hajmining o'z ishini ta'minlash, eng ko'p miqdorda sof mahsulot va foyda olish, qurilish muddatlarini qisqartirish va chegaralangan yoki eng kam mehnat harajatlari bilan ishlash, aylanma mablag'lar, asosiy ishlab chiqarish fondlari va moddiy resurslar sifatini oshirish;

hozirgi bozor iqtisodiyotida rentabellik darajalarining o'sishi va ishlab chiqarish foydaligini ta'minlash har qanday qurilish tashkilotining muhim vazifasi

hisoblanadi. Endilikda uning ko'plab masalalari davlat mablag'lari hisobiga emas, balki o'zi qo'lga kiritgan mablag'lar hisobiga hal qilinadi. Shuning uchun ham ular bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat ko'p "pul topish", foydani ko'paytirish va rentabellikni oshirishga intilishi emas balki o'zlari ishlab topgan mablag'larining iqtisod qilishni va ulardan oqilona foydalanishni ham bilishlari kerak.

davr harajatlarini qisqartirish va jamiyat tasavvurida qoladigan foydani qayta investitsiyalash borasidagi strategiyalarni mukammallashtirish (to'lanadigan dividend miqdorining kam yoki umuman to'lanmaslik muammosini yechish);

qurilish materiallari bozorining o'zgarishlarini o'rganish korxonaning mazkur bozorning yangi segmentlarga chiqish imkoniyatlarini aniqlash (masalan yangi turdagi qurilish materiallari, mahsulotlari va konstruksiyalari ishlab chiqarish) maqsadlarida marketing xizmatini yaratish;

markazda kadrlar salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish bunda, nafaqat ular sonini oshirish, balki ish vaqtidan unumli foydalanish, ular malakalik darajasini oshirish va personalni boshqarishning zamonaviy usullarida foydalanish.

Fikrimizcha yuqorida ta'kidlab o'tilgan takliflardan markazda qo'llansa, menejment samaradorligi, ya'ni Navoiy viloyati qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazi faoliyati samaradorligini oshishi va natijada iqtisodiy mustahkam faoliyat yuritishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar pŷxatı

1. Karimov I. A. 2011 – yilning asosiy yakunlari va 2012 – yilda O`zbekistonni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. “Xalq so`zi” gazetasi 2012 – yil yanvar.
2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Karimov I. A. 2010 – yilning asosiy yakunlari va 2011 – yilda O`zbekistonni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. “Xalq so`zi” gazetasi 2011 – yil 30 – yanvar, 21 – son.
3. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kujli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruzasi. Xalq so`zi, 2010 yil 28 – yanvar.
4. Islom Karimov Eng asosiy me`zon – haqiqatini aks ettirish. T.: O`zbekiston, 2009 yil-24b
5. O`zbekiston Respublikasi prezidentining “Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo`nalishlari to`g`risida” 2003 yil 6 may 3240 son farmoni
6. Karimov.I. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning choralari. T.: O`zbekiston, 2009 yil 56 b
7. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Islom Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari” nomli asarini o`rganish bo`yicha o`quv qo`llanma T.: Iqtisodiyot, 2009 yil 121 b.
8. Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo`nalishlari bo`yicha hujjatlar to`plami. Toshkent 2004 yil 302 – son qaror.
9. Pardayev Iqtisodiy tahlil
10. Abdullayev Iqtisodiy tahlil
11. Ergashboyev Moliyaviy tahlil

12. “Qurilish tashkilotlarining xo`jalik faoliyati” uslubiy qo`llanma.
13. www.gov.uz. (O`zbekiston Respublikasi xukumatining rasmiy sayti)
14. www.gkas.uz. (O`zbekiston Respublikasi Davlat Arxitektura va qurilish Qo`mitasi sayti)
15. www.stat.uz. (O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi sayti)
16. [www. Yahoo.com](http://www.yahoo.com). (Yahoo qidiruv portali)
17. www.yandex.ru. (Yandex qidiruv portali).